



SADOQAT — HAR BIRIMIZNING MA'NAVY QUDRATIMIZ BO'LISHI KERAK



Dunyoda turli xavf-xatar va tahdidlar, qurolli mojarolar va to'qnashuvlar kuchayib borayotgan bugungi kunda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini yanada oshirish, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash muhim vazifalardan biridir.

Vatanparvarlik ruhi

Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda, harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat

O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur. Mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar

va yoshlar bilan ishlash bo'yicha maslahatchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Olimjon O'sarov hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Quronovning "Yangi O'zbekiston" gazetasi uchun tayyorlagan musohabasi bu yo'nalishdagi ishlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlandi.

► Davomi 5-betda

FOZIL ODAMLAR DIYORI

YOXUD YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARIGA QARATILAYOTGAN E'TIBORGA BIR NAZAR

Buyuk o'zbek yo'li

"Fozillar shahri, uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt-saodat nima ekanini bilishi zarur" deb yozgan edi Abu Nasr Forobiy. Bu hikmat ayni kunlarimizga atab yozilgan go'yo. Fozil odamlar shahri sog'inchi ila yozilgan ushbu bitikning bugunimizga bog'liq jihati haqida bir oz keyin batafsil to'xtalamiz. Hozir mazkur so'zlarni eslashimizga sabab bo'lgan va mamlakatimiz kelajagi yo'lidagi muhim voqea — davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqotiga to'xtalim.

Shu yilning 14-fevral kuni videoselektor shaklida bo'lib o'tgan uchrashuv tom ma'noda tarixiy voqea bo'ldi. Unda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi. Qator muhim vazifalar belgilab olindi. Keling, uchrashuvda o'rtaga tashlangan ayrim jihatlari haqida so'z yuritsak.

Hozir dunyoning texnik taraqqiyotini, jahondagi siyosiy vaziyatni ko'rib-bilib turibmiz. Uni ortiqcha ta'riflash shart emas, nazarimizda. Ta'kidlash kerakki, hech zamonda taraqqiyot ham, siyosiy jarayonlar ham hozirgiday global darajada murakkab bo'lmagan. Tan olish kerak, aksariyatimiz bugungi texnik taraqqiyotga mahliyo bo'lsakda, kelajakni tasavvur qila olganimiz yo'q. Tabiiy boyliklar tobora kamayib, ona zamin aholisi oshib bormoqda.

Boz ustiga, ko'pgina kasblarni texnika, xususan, sun'iy idrok egalari boshladi. Bu kelajakda resurslar uchun jiddiy kurash bo'lishini, yuksak intellekt egalari



farovon yashashini anglatadi. Yanada sodda qilib aytganda, bugun maktab ta'limining o'zi bilan mahallaning do'kondori, boringki, 10-15 bosh mol boqib ro'zg'or tebratayotganlar talaygina. Ular el qatori bo'lib yashayapti. Ammo biz aytayotgan kelajakda bunday bo'lmaydi. Masalan, hozir ham mol boqib zo'r foyda olish uchun sohaga oid kitob o'qish, tajribalarni o'rganish zarur. Bu — ilm degani!

Kelajakda ana shu ilmiy tafakkurga ehtiyoj karrasiga oshib ketadi. Bu haqida ham bir oz keyin batafsil to'xtalamiz. Shu ma'noda, yoshlar bilan uchrashuvda ta'limga ustuvor vazifa sifatida qaralgani bejiz emas.

O'zbekistonda ta'limga juda katta e'tibor berilayotgani kishini quvontiradi. Oddiy misol, xususiy bog'chalarga keng

yo'l ochilishi, imtiyoz berilishi orqali qamrov keskin oshirildi. Yoki oliy ta'limga korruptsiyaga to'la barham berilishi sabab adolat tiklandi. Talabga yarasha taklif muhiti yaratildi.

Masalan, ilgari oliy ta'limga bitta o'rin uchun kamida 10 kishi kurashar edi. Buning oqibatida turli qing'irliklar avj olgan, o'qib ilm olishdan ko'ra, universitetga kirib, degan so'z — soxta obro' muhim bo'lib qolgandi. Zamonning o'zi ko'rsatayotgani, oliy ta'limga qabul qilinib, bilim olish muhim. Buni anglashimiz uchun qisqa vaqtda oliygo'har soni 3 barobar oshirildi. Sohaga xususiy sektor kirib keldi. Natijada yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish 42 foizga yetdi.

► Davomi 3-betda



O'ZBEKISTON — KUVAYT MUNOSABATLARINING YANGI MODEL

O'zbekiston keyingi yillarda faol tashqi siyosati doirasida Ko'rfaz arab davlatlari bilan munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur mintaqada mamlakatimizning ishonchli hamkorlari soni ko'payib bormoqda.

Prezidentimizning 17-18-fevral kunlari Kuvaytga ilk rasmiy tashrifi yakunlari fikrimiz isbotidir. Ushbu tashrif O'zbekiston Ko'rfaz mintaqasida yangi va ishonchli sherikka ega bo'lganini ko'rsatdi. Oliy darajadagi uchrashuvda kuzatilgan samimiylik, o'zaro ishonch muhiti va imzolangan shartnomalar ko'hami buni tasdiqlaydi.

Muloqot yakunlarini tahlil qilish asnosida O'zbekiston va Kuvayt munosabatlarning istiqbol bo'yicha qator muhim xulosalar qilish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston va Kuvayt yetakchilarning dastlabki ikki tomonlama uchrashuvlari 2025-yilda O'zbekiston mezbollik qilishi rejalashtirilgan "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi"ning oliy darajadagi ikkinchi sammiti arafasida bo'lib o'tdi.

Bu yil Kuvayt Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashiga raislik qilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining joriy yilgi maslahatlashuv uchrashuviga esa O'zbekiston raislik qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ikki davlat ham mintaqaviy hamkorlikka yangi dinamika berishda muhim o'rin tutadi.

Ayni sababdan rasmiy Toshkentning Al-Kuvayt bilan oliy darajadagi siyosiy muloqoti Ko'rfaz davlatlari bilan ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ikki tomonlama hamkorlik O'zbekistonning ichki iqtisodiy manfaatlariga xizmat qilsa, mintaqaviy muloqot platformasi tashqi siyosiy maqsadlarga mos keladi.

Bu, o'z o'rnida, Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy jihatdan yakdilligini, ya'ni mintaqa nomidan birgalikda va o'zaro manfaatli qarorlar qabul qilish imkoniyatini namoyon etadi. Shuningdek, bu tashqi an'anaviy va yangi sheriklar bilan Markaziy Osiyoning barcha davlati manfaatlariga to'liq javob beradigan hamkorlik modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunday vazifalarning amalga oshishi Markaziy Osiyoda inklyuziv iqtisodiy taraqqiyot va uzoq muddatli siyosiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatini ochadi. Shu ma'noda, Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashiga a'zo davlatlar munosib sherik bo'lishi mumkin.

► Davomi 2-betda

Jurnalist safardan qaytdi

KO'KATNING BOG'LAMI QANCHA?

NIYOZBOSH TOMORQALARIDAGI MANZARA

Bir necha yil oldin Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi mashhur Niyozboshda bo'lgandim. O'shanda yoshlarga yer ajratilganida ularning aksari o'ziga berilgan maydonda piyoz va boshqa ko'katlar ekishga kirishgandi. Bir qarashda nega serdaromad boshqa mahsulotlar turib, aynan ko'katchilikka qiziqayotganlarini tushunmaganman. Keyin bilsam, niyozboshliklar azaldan ko'kat yetishtirish bilan shug'ullanar ekan. Yangiyo'l tumani esa "ko'katchilar hududi" sifatida tanilgan, shu yo'nalishta drayver hisoblanadi. Aksar aholining asosiy daromadi shundan — tomorqada, dalada ham piyoz, ko'kat yetishtirilib, yurtimiz bozorlariga tarqatiladi, katta-katta yuk mashinalarida xorijga eksport qilinadi.

Tonnalab ko'katlar aynan aholi xonadonlaridan yig'ishtirib olinadi. Qizig'i, bu yillardagi tomorqalar unchalik katta ham emas. Bir necha sotixli yerga chetdan qaraganda, ro'zg'orni ta'minlaydigan mahsulotlar yetishtirilsa ham katta gapdek ko'rinadi. Ammo aholining aytishicha, hamma daromad shu

tomorqada. Bo'lsa bordir, har holda yurtimizda tomorqadan samarali foydalanish bo'yicha yaxshigina tajriba shakllanib boryapti. Bu borada o'z tajribasini yaratayotgan hududlar ham bor.

► Davomi 4-betda



"YASHIL IQTISODIYOT" — Bugunning gapi

BARQAROR EKOLOGIK RIVOJLANISH DVIGATELI

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari atrof-muhitni muhofaza qilish iqtisodiyot uchun yuk deb hisoblanadigan an'anaviy modeldan barqaror ekologik rivojlanish dvigateli — "yashil iqtisodiyot" modeliga o'tish yo'lida o'z siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqmoqda.

Yangi global "yashil" rivojlanishni tanlash taraqqiyotning yagona yo'llaridan biri sifatida jahon iqtisodiyoti va moliyaviy tizimining barqarorligi, insoniyat taraqqiyotining bardavomligini ta'minlaydi. Butun dunyoda uglevdorod xomashyosi zaxiralari tabiiy ravishda kamayib borayotgani "yashil" energiya manbalariga o'tish va yuzaga kelayotgan iqlim o'zgarishlariga moslashish jarayonini yanada jadallashtirishga

Ekologik toza energiyadan foydalanishning asosiy dolzarbligi shundaki, sayyoramizda hosil bo'layotgan global ekologik muammolar, shu jumladan, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning haddan tashqari ifloslanishi, cho'llanish keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlar ko'lami borgan sari kengayib, ta'siri ortmoqda. Umuman olganda, vaziyat keskinlashib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyoda yiliga atmosfera havosiga 34 milliard

tonna is gazi chiqariladi, issiqlik gazlari emissiyasining umumiy hajmi esa 41 milliard tonnani tashkil etadi.

Ushbu ko'rsatkichlar o'tgan asming 50-yillaridagidan 3,8 barobar o'sgan. Boz ustiga, uglevdorod energiyasi manbalari resurslari chegaralangan, hajmi kamayishi muqobil energetikani rivojlantirish choralarini ko'rishni bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz shartli vazifasi o'laroq kun tartibiga olib chiqilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, so'nggi yillarda dunyoda "yashil" energetikaning asosiy manbai bo'lmish qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish shiddat bilan rivojlanmoqda. 2022-yilda qayta tiklanuvchi energiya moslamalarining o'rnatilgan umumiy

quvvati 3372 gigavattni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, 3700 gigavattga yetdi. Jumladan, gidroenergetika quvvatlari 21 gigavatt, shamol energetikasi 75 gigavatt, quyosh energetikasi 191 gigavatt, bioenergetika 7,6 gigavatt, geotermal energetika esa 181 megavattga oshdi.

2024-yil yakuni bo'yicha dunyoda qayta tiklanuvchi energiya moslamalarining umumiy quvvati 4600 gigavattga yetdi. Mazkur yo'nalishda o'tgan yili Xitoy rekord ko'rsatkichlarga erishib, quvvatlari quyosh energetikasi bo'yicha 18 foiz, shamol energetikasi bo'yicha 45 foiz ko'paytdi.

► Davomi 2-betda

O'ZBEKISTON – KUVAYT MUNOSABATLARINING YANGI MODEL

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, Ko'rfaz davlatlarining birgalikdagi yirik iqtisodiy imkoniyatlari Markaziy Osiyoning keyingi taraqqiyotiga yanada katta turki berishi kutilmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston va Kuvayt o'rtasidagi istiqboldagi hamkorlik ikki davlatning xalqaro maydonda global barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash kabi keng qamrovli ustuvor maqsadlariga mos keladi. Tashqi siyosiy kun tartibidagi o'xshash qarashlar esa ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi yana bir muhim omildir.

Shu sababli muzokaralar jarayonida davlat rahbarlari mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar bo'yicha fikr almashib, keng qamrovli sheriklikni rivojlantirishga kelishib oldi. Tomonlar, shuningdek, BMT, IHT, SHHT va Qo'shilmaslik harakati kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlovni davom ettirish muhimligini ta'kidladilar.

Uchinchidan, ikki davlat munosabatlarida iqtisodiy hamkorlik ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda oliy darajadagi uchrashuvlar arafasida O'zbekiston — Kuvayt biznes-forumi tashkil etilganini ta'kidlash lozim. Qolaversa, O'zbekiston Prezidenti Kuvaytning qator yirik kompaniyalari rahbarlari bilan alohida uchrashuvlar o'tkazdi. Ular orasida "Gulf Care General Trading" (tibbiyot), "Kamco Invest" (investitsiyaviy banking), "Kuwait Investment Company" (investitsiya), "Al Imtiaz Investment Group" (moliya), "Action Group Holdings" (energetika/infrastruktura), "Agility Logistics" (transport) kabi yetakchi kompaniyalar bor.

Yuqoridagilarning barchasi tomonlar uchun ishbilarmon doiralarda bilan aloqalarning ahamiyati siyosiy muloqot ahamiyatidan kam emasligini ko'rsatmoqda. Zero, ikki davlat ham xususiy tadbirkorlik rivojiga milliy iqtisodiyot drayveri sifatida qaraydi. O'zaro munosabatlarining keyingi taraqqiyoti esa, birinchi navbatda, O'zbekiston va Kuvayt davlatlari aholisi uchun manfaatli bo'lishi lozim. Shakllanayotgan O'zbekiston — Kuvayt hamkorlik modelida yuqoridagi tamoyil asosiy o'rin tutmoqda.



Ikki davlat ham chuqur transformatsiya davrining ajralmas qismi bo'lgan jadal urbanizatsiya bosqichini bosib o'tmoqda. Ya'ni shahar aholisi soni tezlik bilan ko'paymoqda. Shuning uchun "aqlli" shaharlar qurishdagi hamkorlik O'zbekistonga shahar infrastrukturasi zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilgan holda rivojlantirish imkonini beradi.

Investitsiyaviy hamkorlikning yangi bosqichi

Zotan, davlatimiz rahbarining Kuvaytga ilk tashrifi munosabatlarning iqtisodiy tarkibini kengaytirish uchun favqulodda samarali bo'ldi.

Shu o'rinda erishilgan muhim kelishuvlar va istiqbollarga urg'u bergan holda O'zbekiston — Kuvayt munosabatlari yangi modelining bir qancha ustuvor yo'nalishini ko'rsatib o'tish joiz.

Savdo sohasidagi hamkorlik

Tomonlar o'zaro savdo almashinuvini hajmini ko'paytirish niyatida. Kuvayt O'zbekiston milliy mahsulotlari uchun yangi yirik bozorga aylanishi mumkin. Arab tomoni yiliga o'rta 50 milliard dollar miqdoridagi mahsulotlarni import qiladi. Bu o'zbek milliy ishlab chiqaruvchilari uchun yangi imkoniyatlarini ochadi. Shuning uchun O'zbekiston — Kuvayt shahrida savdo uyini ochish bo'yicha kelishuvga erishdi. Maqsad O'zbekiston milliy mahsulotlarini Kuvaytdagi potensial xaridorlarga tanitish, milliy brendlarning tanilishini oshirish va bozordagi mavqini mustahkamlashdir.

Kuvayt yirik investitsiyaviy imkoniyatlarga ega mamlakat. Shu sababli O'zbekiston arab tomoni bilan investitsiya yo'nalishida hamkorlik qilishdan manfaatdor. Uchrashuvda Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi bilan yangi hamkorlik dasturi doirasida loyihalar portfelinii kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan bejiz emas. Qolaversa, ikki tomonlama "Investitsiya platformasi" yaratish bo'yicha rejalari e'lon qilindi. Iqtisodiy sohada rezolangan kelishuvlar to'plami esa deyarli 5 milliard dollarni tashkil etdi.

Kuvayt yillik xizmatlar importining deyarli yarmi turizm sohasiga to'g'ri keladi. Kuvaytlik sayyohlar chet elda 10 milliard dollardan ortiq pul sarflaydi. O'zbekiston boy madaniy merosi, Sharq ilm-fani va islom madaniyatining tarixiy markazlaridan biri sifatidagi maqomi tufayli kuvaytlik sayyohlar uchun muhim turizm yo'nalishlardan biriga aylanishi mumkin. Shu o'rinda ikki tomonlama muzokaralarda imzolangan Turizm sohasida 2025-2027-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi O'zbekistonga arab turistlar oqimini bir necha barobar ko'paytirish imkonini berishini alohida ta'kidlash o'rinni.

Ikki tomonlama uchrashuvda sanoat sohasidagi hamkorlik bo'yicha shartnoma imzolashini va ishbilarmonlar kengashini tuzish haqida birgalikdagi rejalari e'lon qilinishi orqali "O'zbekiston — Kuvayt" qo'shma korxonalarini

yaratish yo'lida tamal toshi qo'yildi. Munosabatlarning bunday rivojlanishi ikki tomon uchun ham foydalidir.

Zotan, qo'shma korxonalar ikki mamlakatning ham ishlab chiqarish salohiyatini oshirib, yangi ish o'rinlari ochilishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, sanoat kooperatsiyasi O'zbekiston va Kuvayt uchun uchinchi davlatlar bozoriga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Eng muhimi, hamkorlik innovatsion yo'nalishda ham rivojlanmoqda. Bunga "aqlli" shaharlar qurish bo'yicha shartnoma imzolangan misol bo'ladi. Mazkur sohada O'zbekiston Kuvaytning boy tajribasidan foydalanishi mumkin.

Ikki davlat ham chuqur transformatsiya davrining ajralmas qismi bo'lgan jadal urbanizatsiya bosqichini bosib o'tmoqda. Ya'ni shahar aholisi soni tezlik bilan ko'paymoqda. Shuning uchun "aqlli" shaharlar qurishdagi hamkorlik O'zbekistonga shahar infrastrukturasi zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilgan holda rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ikki tomon o'rtasida madaniyat, ta'lim va texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish borasida ham keng imkoniyat mavjud. Bu esa iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Ikki davlat yetakchilarining oliy darajadagi uchrashuvi O'zbekiston va Kuvaytga o'zaro manfaatli hamkorlikning mutlaqo yangi modelini yaratish imkonini bermoqda. Munosabatlarning bunday rivojlanishi davlatlarimiz iqtisodiy taraqqiyotning muhim pallasini boshdan kechirayotgan bir davrda, ayniqsa, foydali bo'ladi.

Qolaversa, O'zbekiston — Kuvayt munosabatlarining yangi bosqichi

"Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" doirasidagi ko'p tomonlama format rivoji uchun ham yana bir poydevor yaratadi.

**Aziz KARIMOV,
Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti yetakchi ilmiy xodimi**

Bugunning gapi



"YASHIL IQTISODIYOT" – BARQAROR EKOLOGIK RIVOJLANISH DVIGATELI

Boshlanishi 1-betda

Shunga qaramay, jahonda, ayniqsa, Yevropada energetik inqiroz hamon davom etmoqda. Ushbu qit'ada sodir bo'lgan energetik inqiroz, asosan, atrof-muhit holati bilan bevosita bog'liqligi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunga kelib, jahonda energiyaga talab yildan yilga oshgani sari ko'plab rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Xitoy, Buyuk Britaniya va Yevropaning bir necha davlati)da energiya tanqisligi vujudga kelmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda yiliga 81 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqiladi. So'nggi yillarda iqtisodiyotimizning jadal o'sishi (YIM yiliga o'rtacha 5-6 foiz o'smoqda) va aholining yiliga 700-800 mingga ko'payishini inobatga oladigan bo'lsak, mutanosib ravishda energiyaga talab ham ortib bormoqda. Hisob-kitoblarimizga ko'ra, 2030-yilga borib, energiyaga talab yiliga kamida 117-120 milliard kilovattga yetadi.

Mana shunday sharoitda O'zbekistonda izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlar doirasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va barqaror rivojlanish maqsadlariga samarali erishish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan masalalar ilgari surilib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish ustuvor vazifalardan biri ekanini belgilab olinmoqda.

O'zbekiston energetika sektorining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish asosiy rol o'ynaydi. Chunki



O'zbekiston energetika sektorining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish asosiy rol o'ynaydi. Chunki yurtimiz bu borada mislsiz tabiiy zaxiralarga ega. Shu bois, respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotir.

yurtimiz bu borada mislsiz tabiiy zaxiralarga ega. Shu bois, respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotir.

Birinchi navbatda, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining huquqiy asoslari yaratildi. 2019-yili "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun, Prezidentimizning muhim va konseptual farmon va qarorlari qabul qilindi.

Tizimli faoliyat natijasida 2024-yilga kelib, mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvati 4500 megavattga yetdi va uning umumiy energetika tarmog'idagi ulushi 16 foizni tashkil qildi.

Birgina 2024-yilning o'zida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hisobidan qariyb 1 milliard kub metr tabiiy gaz tejalishiga erishildi va atmosferaga 1 million 400 ming tonna issiqlik gazlari chiqishining oldi olindi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasiga asosan, 2030-yilga borib, umumiy quvvati

25,7 milliard kilovatt elektr energiyasi quvvatlarini ishga tushiriladi. Shundan 6178 megavatt quyosh, 10 452 megavatt shamol, 3269 megavatt gidro hamda 5821 megavatt issiqlik energiyasi quvvatlarini foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Mamlakatimiz 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 40 foizigacha yetkazishni rejalashtirgan. Shu bilan birga, energetika xavfsizligini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Xususan:

— energetika tarmog'ini yanada diversifikatsiya qilish;

— ilg'or muqobil energiya yangi turlarini, jumladan, samarali va ekologik toza vodorod yoqilg'isidan keng foydalanishni joriy etish. Vodorodning yoqilg'i sifatida afzalligi shundaki, u yonganida nafaqat ekologik toza suv bug'ini hosil qiladi, balki organik yoqilg'larga nisbatan energiya zaxirasi yuqori bo'lib, bir tonna vodorod yonganida 3,5 tonna organik yoqilg'i yongandagiga teng issiqlik ajralib chiqadi;

— ayrim obyektlarni avtonom (lokal) elektr energiyasi bilan ta'minlash tizimiga o'tkazish kerak. Chunki elektr energiyasini uzoq masofalarga yetkazib berishda uning yo'qotilishi o'rtacha 18 foizni tashkil etadi;

— quyosh panellari va shamol generatorlari ishlab chiqarishni keng ravishda mahalliyashtirish;

— qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish;

— xonalarni isitish va issiq suv olish uchun quyosh kollektorlarini (iqlim sharoitimizga

qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish;

— xonalarni isitish va issiq suv olish uchun quyosh kollektorlarini (iqlim sharoitimizga

IJTIMOY TARAQQIYOT VA ADOLAT UCHUN PARLAMENT HARA-KATI

O'ZBEKISTONDA SHU MAVZUDA NUFUZLI TADBIR O'TKAZILADI

Prezidentimiz taklifiga asosan, 2025-yil 5-9-aprel kunlari Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi O'zbekistonda bo'lib o'tishi belgilangan.

Parlamentlararo Ittifoq dunyo mamlakatlarining qonun chiqaruvchi organlari uchun global muloqot maydonidir. Uning doirasida muhokama qilingan masalalar jahon hamjamiyati e'tiboriga taqdim etiladi. O'zaro aloqalarni rag'batlantirish, xalqaro tinchlik hamda hamkorlikni mustahkamlashda birgalikda faoliyat yuritish uchun parlamentlarni birlashtirish mazkur tashkilotning asosiy vazifalaridan biridir.

Shveysariyaning Jeneva shahrida Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi Martin Chungong va Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva o'rtasida tashkilotning 150-yubiley assambleyasini 2025-yili O'zbekistonda o'tkazish to'g'risidagi bitim imzolangan.

E'tiborli jihati, 190 ga yaqin mamlakat parlamentini birlashtirgan ushbu tuzilma o'zining yuqori organi — assambleyani parlamentarizm va barqaror rivojlanishning ijobiy tajribasi mavjud davlatlardagina o'tkazadi.

Bunday nufuzli tadbim nafaqat yurtimizda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor o'tkazilishi tarixiy voqeadir. Buni O'zbekiston parlamentining Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishdagi faol ishtiroki, normativ-huquqiy bazaning xalqaro standartlarga mos takomillashtirilishi, parlament darajasida inson huquqlarini himoya qilish va gender tenglik masalalarini ilgari surish, Yoshlar parlamenti doirasida ularning qonun ijodkorligi faoliyatiga keng jalb etilishi bilan izohlash mumkin.

Bugun Parlamentlararo Ittifoq nufuzi dunyo miqyosida ortib bormoqda. Mazkur tashkilot faoliyati misolida hozirgi xalqaro munosabatlarda mezonlari samaradorligi yaqqol namoyon bo'lyapti.

O'zbekiston Parlamentlararo Ittifoqqa 1992-yilda a'zo bo'lgan. 2017-yildan mazkur tashkilotdagi a'zolikni qayta tiklagan. Hozir O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Parlamentlararo Ittifoq bilan faol hamkorlik qilib kelmog'da. O'tgan qisqa muddatda mamlakatimiz mazkur ittifoqning ajralmas qismiga aylangani, hamkorlikda Buxoro shahrida Barqaror rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan xalqaro parlament forumi hamda Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqqa a'zo davlatlar parlamentlari ayol rahbarlari 14-sammiti muvaffaqiyatli o'tkazilganini e'tirof etish lozim.

Mazkur assambleyaning bosh mavzusi "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" deb nomlanib, tadbir doirasida dunyo parlamentlarining aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni

qisqartirish, huquq ustuvorligini va gender tenglikni ta'minlash, ilm-fan va texnologiya, yoshlar masalalariga bag'ishlangan turli tadbirlar tashkil etish borasidagi islohotlar yuzasidan tajriba almashishi ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, Parlamentlararo Ittifoq assambleyasining mamlakatimizda o'tkazilishi O'zbekiston parlamentidagi faoliyati bilan tanishish, 2030-yilgacha bo'lgan strategiyani amalga oshirishda parlamentlar ishtirokini kengaytirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, inson huquqlari, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda parlamentlar hamkorligini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Anjuman natijalariga ko'ra, jahon parlament harakatining o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradigan tegishli hujjatlar, Toshkent deklaratsiyasi va Parlamentlararo Ittifoq rezolyutsiyasi qabul qilinishi belgilangan.

**Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi**

**Boriy ALIXONOV,
Narimon UMAROV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputatlari**

Buyuk o'zbek yo'li

“Go'dakning ilk ko'nikmalari shakllanayotganda u onasi bilan ko'proq vaqt o'tkazadi. Shu bois, Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lidan borayotgan O'zbekistonda butun jamiyatni ilmi, ma'rifatli qilishga katta e'tibor berilmoqda. Buning uchun biz, avvalo, kitobxon avlodni shakllantirishimiz kerak.”



Boboravshan G'oziddinov,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Yana bir muhim jihat ilmiy daraja olishdagi islohotlardir. Sun'iy to'siq uchrab, yillar davomida chang bosib yotgan ilmiy izlanishlar o'zgarishlar sabab ish stoliga qaytdi. Ta'limning yuqori bosqichlarini davom ettiradigan yoshlar safi keskin ko'paydi. Natija quvonarli, o'tgan davrda ilmiy darajali yosh olimlarimiz soni 2 karra oshib, 4357 nafarga yetdi. Mazkur raqamning o'ziyoq yangi O'zbekistonda inson kapitaliga tikilayotgan sarmoya, qaratilayotgan e'tibor katta samara bera boshlaganini ko'rsatadi. Keling, yaxshisi aniq faktlarga o'tsak.

Olti yillik 18 yoshli Azizbek Zayloiddinov Garvard universitetidan 100 foizli grant oldi. Bu degani, uning AQSHdagi 4 yillik o'qish xarajatlari qoplab beriladi. Oddiy o'zbek o'g'lonining dunyoning old oliyohidida bunday natijaga erishishi zamirida aynan keyingi yillardagi islohotlar yotibdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Muhim jihat shundaki, Azizbek ijtimoiy loyihalarni, ayniqsa, “Ibrat debate” loyihasida ishlagan. Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlagan. Ana shu izlanishlari bugun samara bergan. Ha, agar bunday loyihalarni bo'lmaganida Azizbek ilmiy salohiyati, imkoniyatidan vaqtida samarali foydalanishi so'roq ostida qolgan bo'lar, ehtimol.

Quvonarlisi, u kabi yoshlar ko'plab topiladi. Bunga davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqoti chog'ida guvoh bo'ldik. Hozir dunyodagi nufuzli universitetlarda 1,5 mingdan ziyod talabamiz tahsil olmoqda. Avvalgi 25 yil ichida davlat hisobidan 800 yig'it-qiz xorijga o'qishga ketgan bo'lsa, birgina “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali so'nggi 7 yilda 2300 vatandoshimiz shunday imkoniyatga ega bo'lgan.

Shu o'rinda kichik mulohaza. Agar mana shunday imkoniyat, sharoit yaratilmaganida qonida ulug' ajdoddan meros yuksak ilmiy tafakkur yashirin bo'lgan shuncha yosh o'z yo'lini topa olarmidi? Ular o'z imkoniyatidan to'la foydalanib, bugungi darajaga erishmirdi? Mazkur savollarning javobi ta'limga e'tiborning qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi.

Albert Eynshteyn “Zakovat o'qish o'rganish emas, unga erishish yo'lida g'arabalar mevasidir”, degan edi. Bugun esa yoshlar uchun ilimga erishish yo'lida bemalol harakat qila olish imkoniyati yaratib berilmoqda. Bundan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Chunki bu, yuqorida aytganimizdek, bebaho boylik, inson kapitalini yuksaltirishda muhim qadam.

Ammo yana bir haqiqatni unutmaslik kerak. XXI asr yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirishni xushlamaydi. Zero, bizni kutayotgan kelajakka munosib tarzda hozirlik ko'rib, muttasil ravishda olg'a harakat qilish zarur. Shu bois, Prezidentimiz yoshlar ta'limi borasida qator yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Masalan, Olmazor tumanidagi 10 ta maktabda muhandislik laboratoriyalari tashkil qilindi. Bugun ushbu laboratoriyalarda 2 ming o'quvchi robototexnika va ilg'or texnologiyalarni o'rganmoqda. Barcha tumanlar hokimlariga bu tajribani o'rganib, ommalashtirish, o'z hududida 5 tadan maktabni shunday laboratoriyalar bilan jihozlash topshirildi.

Bundan tashqari, 36 ta texnika oliyohi rektorlari sun'iy intellekt, robototexnika, dron, kibernetika kabi ixtirochilik yo'nalishtirildi. “Oliyoh kubogi”ni e'lon qiladigan bo'ldi. E'tiborlisi, eng yaxshi startap loyihalarni tijoratlashtirildi.

Qolaversa, kelgusi o'quv yilidan boshlab o'quvchilari o'rtasida muhandislik olimpiadalar va tanlovlari o'tkaziladi. Negaki hozir fizika, kimyo, texnologiya, muhandislik, matematika kabi STEM fanlari ahamiyati tobora o'tib bormoqda. Hozirda o'quvchilarni ushbu fanlarga yo'naltirish, rag'batlantirish asosida



puxta o'qitish xalqimiz bolalarining xalqaro keskin raqobatga bardoshli bo'lib o'sishiga zamin yaratadi. Mazkur uchrashuv ana shunday jihatlari sabab ham tarixiy voqea deyishga to'la arziydi.

Shu o'rinda kichik mulohaza. Yuqorida kelajakda ilmiy tafakkurga ehtiyoj karrasiga oshib ketishi haqida aytgan edik. Keyin yoshlarni o'sha raqobatga bardoshli qilish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ayrim o'zgarishlar haqida to'xtalidik. Xo'sh, shu bilan masalaga yechim topiladimi? Yaqin kelajakda 40 millionlik nufusni zabt etadigan xalqimiz yetarlicha ilimga ega bo'ladimi?

Nazarimda, islohotlarning o'zi yetarli emas. Ya'ni mana shu imkoniyatlar, islohotlarga mos ravishda jamiyat ham o'zgarishi shart. Takror bo'lsa-da aytamiz, aksariyatimiz ilmiy raqobatga to'la kelajak haqida o'yab ham ko'rgan emas. Agar unday bo'lmaganida edi, o'qituvchilar nufuzini oshirish uchun ularning maoshi karrasiga ko'payishini kutib o'tirmasdik. Bolamizga dakkli bergan o'qituvchi yoniga mustahkamlanib, gul ko'tarib borgan bo'lar. Bir yil o'ylay ta'limga qabul qilinmagan farzandimizni “Undan ko'ra ishlab pul top, erta-inda oilangni qanday boqasan”, deya xorijga ishga quvib yubormagan bo'lar.

To'g'ri, bugun qancha qiynalmasin, bolalari o'qishiga alohida e'tibor berayotgan ota-onalar bor. Afsuski, ularning safi uncha katta emas. Biz o'qib, tom ma'noda akademik ilm olishni emas, yaxshiroq joyda ishlash, ko'proq pul topish haqida qayg'uramiz. Hayotiy hisob-kitobimiz ham shunga yarasha. Shu bois, hamon to'ylar biz uchun eng muhim voqea. Bor topgan-tutganimizni shunga sarflaymiz. Xo'sh, shunday ekan, jamiyatni o'zgartirish uchun nima qilish kerak?

Birinchi o'rinda, ziyolilar ilmiy targ'ib etishi shart. Endi o'qisang yaxshi mutaxassis bo'lasan, yaxshi yashaysan, deydishning o'zi kifoya emas. Bunga qo'shib yuqorida aytganimiz — raqobatga to'la kelajak haqida ko'proq ma'lumot berish kerak. Qolaversa, oilalarda ilmiy darajani oshirishga urg'u berish zarur. Bu borada bajarilishi kerak bo'lgan vazifaga davlatimiz rahbari yana bir bor to'xtalib o'tdi va: “Men bir hayotiy fikrni takrorlashdan charchamayman: bitta qizni o'qitsak, butun oilani o'qitgan bo'lamiz. Oila bilimli, ma'rifatli bo'lsa, butun jamiyat bilimli, ma'rifatli bo'ladi. Bu boradagi ishlarni yanada jadal davom ettiramiz”, dedi.

Yana bir quvonarli holat, xotin-qizlarga kontrakt puli davlat tomonidan qoplab berilayotgani sabab talaba qizlar soni 11 karra ko'paygan. Endi qizlar ta'limi yanada keng quloq ochishi, qizlarimiz — millatning bo'lajak onalari sun'iy intellektidan ham bilimdonroq bo'lishi kerak.

Qizlar ta'limi borasida ham jamiyatimizda qotib qolgan qarash bor. Ertaga baribir bu sohada ishlamasang, o'qib nima qilasan, deyim. Ana shu vaj bilan ularning o'qishiga yo umuman ruxsat berilmaydi yoki o'zlariga yoqmaydigan, lekin ishlashi mumkin bo'lgan sanoqli kasblarga yo'naltiriladi. Majburiy tanlov sabab ularning ilmiy salohiyati to'la ochilmay qolib ketish ehtimoli yuqori. Chunki butunlay boshqa fan yoki jabhada iste'dodi bo'lgani sabab bu sohaga umuman qiziqmaydi.



Biz Uchinchi

Renessans timsolida fozil

odamlar diyorini bunyod etmoqchimiz. Agar biz fozil odamlar shahrida yashash saodatini his eta olsak, unga erishish uchun qalbimizda nihoyatda kuchli intilish tug'iladi. Hozirgi qadamlarimizni o'sha baland marraga moslab tashlaymiz. Bunday qadam tashlash esa yuqorida takrorlaganimiz — kelajakni tasavvur qilib, unga tayyor turishga, bu yo'lda yagona xalq, bitta vatan bo'lib olg'a intilishga undaydi. Nazarimda, davlatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvdan ko'zlangan eng katta maqsadlardan biri ham dillarimiz erishadigan baxt-saodat nima ekanini anglatishga qaratilgan.

Bugun qizlarni o'qitishda e'tibor qiladigan jihatlari bizning eng muhimi kasb tanlovi erkinligini to'la berishdir. Zero, yuqorida bo'lajak onalar sun'iy intellektidan ham bilimdonroq bo'lishi kerak, dedik. Bu mubolag'a gap emas. Hayotiy ehtiyoj, qizlar ta'limining nechog'liq muhim ekaniga ishora.

Keling, soddaroq tushuntiramiz. Hozir dunyoda juda g'alati tendensiya kuzatilmoqda. Ya'ni biz bilimgan narsalarimizni o'tan zamandan so'zardik. Ular buning javobini bilmasa ham hayotiy tajribasidan kelib chiqib javob berardi. Yoki kitob varaqlardir. Hozir oilaviy o'tirganimizda bahsli savol tug'ilib qolsa, hali maktabga chiqmagan bolamiz: “Internetdan qarab ko'ring”, deydi. Chunki bolalarimiz ham o'zimiz kabi hamma savollarning javobi internetda deb o'ylaydi.

To'g'ri, tarmoqlarning imkoniyati keng. Ayniqsa, sun'iy idrok istalgan savolga javob beradi. Ammo u taqdim etayotgan javoblar doim ham to'g'ri bo'lmaydi. Demochimizki, sun'iy idrokka qaram bo'lib qolmaslik, uni boshqara olish uchun ham onalar bilimdon bo'lishi kerak. Zero, onaning ilmiy tafakkuri ko'proq bolada aks etadi.

Qolaversa, go'dakning ilk ko'nikmalari shakllanayotganda u onasi bilan ko'proq vaqt o'tkazadi. Shu bois, Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lidan borayotgan O'zbekistonda butun jamiyatni ilmi, ma'rifatli qilishga katta e'tibor berilmoqda. Buning uchun biz, avvalo, kitobxon avlodni shakllantirishimiz kerak.

Respublika matbuotidagi ilk katta chiqishim kitobxonlik, aniqrog'i, yoshlarning kitob o'qimasligi to'g'risidagi maqolaga aks sado edi. Bu huv o'sha, 25 yil oldingi gurgun. Buni eslaganim boisi, o'sha paytda matbuoti kuzatib borardim. Unda doim kitob o'qimayotgan yoshlar haqida chiqishlar kuzatildir. Maqolam ham o'sha chiqishlardan biri sifatida o'tib

ketgan. Shuncha maqolalar e'lon qilinsada, masala jurnalistlar, ziyolilar tomonidan ko'ndalang qo'yilsa ham kitobxonlik borasida biror jiddiy ish qilinganini eslay olmayman. Yodimda qolgan, o'sha vaqtda sobiq kolxozga qarashli va mahallamizdagi kattagina kutubxonalar bizga noma'lum sabablarga ko'ra ko'chirib ketilgandi.

Qizig'i, ikkala kutubxona ham bizdan 20 kilometr olisdagi kollej binosidan joy oldi. Achinarlisi, ko'chirish jarayonida qanchadan qancha kitoblar yo'qoldi, yana bir talayi mahalliy “mafkura” chig'irig'ida o'ta olmadi. Buni o'shanda havaskor jurnalist, o'sha kutubxonalar a'zosi sifatida yuragim achishib, jim kuzatganman.

Yana bir hayotiy voqea. Aynan o'sha yillarda mahalladoshim Qulmuhammad aka bozorda gazeta-jurnal sotardi. Bir safar borsam, qator qilib yangi kitoblarni taxlab qo'yibdi. Kitobning narxi falon so'm. Agar sotib olishga qiynalsang, ijara o'l, dedi.

Ha, o'sha paytda mahalladoshim kitobni arimas pulga ijara berishni yo'lga qo'ygani edi. Qizig'i, ijardagi kitoblarni olish uchun navbat kutardik. Demochimizki, xalqimiz hech qachon kitobdan butunlay xalqqa qo'lgan. Hatto biz ommaviy ravishda yoshlarni kitob o'qimashga ayblagan bo'lsak ham! Shunchaki, kitob o'qishga imkoniyat, sharoit yetarli bo'lmagan. Bor imkoniyatlar ham kutubxonalarimizni markazlashtirish bahona mutoladan pulni iqtisod qilishga qaratilgan ishlar sabab yo'qqa chiqarildi. Sira yodimdan chiqmaydi, xasga yuqushgan odamday qo'lmdan mahkam tuib olgan bir ziyoli akamiz gazetaga yozing, kutubxonamizni saqlab qolaylik, degan edi.

Hozir kitob o'qigani uchun mashina berilishiga ham ko'nikib bo'ldik. “Kitobsevar millat” g'oyasi asosida yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish umummilliy harakatga aylandi. Quvonarlisi, an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan “Yosh kitobxon” tanlovidagi ishtirokchilar soni 6 karra oshib, 3 million nafarga yetgan. Mashina yutib olish rag'batini yoshlarni kitob bilan muttasil mashg'ul bo'lish, o'qiganlarini ravon tilda bayon etish ko'nikmasini o'zlashtirishga sabab bo'ldi. Ya'ni birgina tanlov sabab dunyovarashi keng, fikrini ravon ifoda eta oladigan yoshlar safi kengaydi.

Yuqorida kitobni ijara beradigan mahalladoshim misolida mutolaga imkon yaratish haqida aytidik. Hozir nafaqat yangi kitoblarni chop etish, ularni maktablarda, mahallalarda tekin yetkazib berish, balki yoshlarga uni o'qib berish ham ommalashmoqda.

Bir guruh faol yoshlar tomonidan yaratilgan “Mutolaa” loyihasi ishga tushdi. Maxsus ilovadagi kitoblarni gadjetlar orqali o'qish ham, tinglash ham mumkin. Buning uchun

professional ovoz ustalari, aktyorlar ko'magida kitoblar ovozlashtirilgan. Uning quylayliklari juda yaxshi. Yo'l-yo'lakay ham kitobni tinglab ketaverasiz. Keyingi safar ilova adashmasdan kitobni kelgan joyidan qo'yib beradi. Mana shunday imkoniyatlar sabab mazkur ilova orqali 1 milliondan ortiq yosh kitobxonlar qatoriga kirdi.

Bir vaqtlar sotib ololmagan kitobimizni ijara olganimizda, hozir yoshlar topa olmagani kitoblarni mazkur loyiha sabab bepul o'qiyapti. Masalan, loyihaning sinov davrida eng ko'p foydalangan yurdoshimiz aniqilanib, undan fikr so'ralgan edi. O'shanda u qizi tanlovga qatnashishi uchun hamma kitobni topa olmagani. “Mutolaa” ilovasi esa ularga yaxshi ko'makchi bo'lganini aytgan.

Biz yuqorida bot-bot aytganimiz — iste'dodlar o'zini to'la ko'rsata olishi uchun,

professional ovoz ustalari, aktyorlar ko'magida kitoblar ovozlashtirilgan. Uning quylayliklari juda yaxshi. Yo'l-yo'lakay ham kitobni tinglab ketaverasiz. Keyingi safar ilova adashmasdan kitobni kelgan joyidan qo'yib beradi. Mana shunday imkoniyatlar sabab mazkur ilova orqali 1 milliondan ortiq yosh kitobxonlar qatoriga kirdi.

Bir vaqtlar sotib ololmagan kitobimizni ijara olganimizda, hozir yoshlar topa olmagani kitoblarni mazkur loyiha sabab bepul o'qiyapti. Masalan, loyihaning sinov davrida eng ko'p foydalangan yurdoshimiz aniqilanib, undan fikr so'ralgan edi. O'shanda u qizi tanlovga qatnashishi uchun hamma kitobni topa olmagani. “Mutolaa” ilovasi esa ularga yaxshi ko'makchi bo'lganini aytgan.

Biz yuqorida bot-bot aytganimiz — iste'dodlar o'zini to'la ko'rsata olishi uchun,

avvalo, imkoniyat bo'lishi kerak. Keyin jamiyatdan o'zgarishni kutsak arziydi. Ya'ni kechagi o'zgarishlar bugun kitobxon, ma'rifatli jamiyatga tamal toshi bo'lmoqda. Bugungi sa'y-harakatlar esa sun'iy idrokka ham dars beradigan, ustozini boshida ko'tarib, to'yo kabi turli tadbirlarni kamxarj o'tkazish tarafdori bo'lgan jamiyat shakllanishiga ishonch uyg'otadi.

Gap ishonch haqida ketar ekan, yana bir quvonchli holatni eslab o'tmoqchiman. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda mudofaa vaziri maslahatchisi Olimjon O'sarov bir qiziq ma'lumot ulashdi. Ya'ni O'zbekiston Qurolli Kuchlar akademiyasiga qisqa muddatli amaliyot o'tash uchun kelgan Fransiya armiyasi kichik leytenanti Fransua-Andre mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimi bilan yaqindan tanishish maqsadida Yunusobod tumanidagi maktablardan biriga borgan. U maktabda CHQBT fani o'quv xonasi, yaratilgan sharoitlar, amaliy dars jarayonlari bilan tanishgan.

avvalo, imkoniyat bo'lishi kerak. Keyin jamiyatdan o'zgarishni kutsak arziydi. Ya'ni kechagi o'zgarishlar bugun kitobxon, ma'rifatli jamiyatga tamal toshi bo'lmoqda. Bugungi sa'y-harakatlar esa sun'iy idrokka ham dars beradigan, ustozini boshida ko'tarib, to'yo kabi turli tadbirlarni kamxarj o'tkazish tarafdori bo'lgan jamiyat shakllanishiga ishonch uyg'otadi.

Gap ishonch haqida ketar ekan, yana bir quvonchli holatni eslab o'tmoqchiman. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda mudofaa vaziri maslahatchisi Olimjon O'sarov bir qiziq ma'lumot ulashdi. Ya'ni O'zbekiston Qurolli Kuchlar akademiyasiga qisqa muddatli amaliyot o'tash uchun kelgan Fransiya armiyasi kichik leytenanti Fransua-Andre mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimi bilan yaqindan tanishish maqsadida Yunusobod tumanidagi maktablardan biriga borgan. U maktabda CHQBT fani o'quv xonasi, yaratilgan sharoitlar, amaliy dars jarayonlari bilan tanishgan.

avvalo, imkoniyat bo'lishi kerak. Keyin jamiyatdan o'zgarishni kutsak arziydi. Ya'ni kechagi o'zgarishlar bugun kitobxon, ma'rifatli jamiyatga tamal toshi bo'lmoqda. Bugungi sa'y-harakatlar esa sun'iy idrokka ham dars beradigan, ustozini boshida ko'tarib, to'yo kabi turli tadbirlarni kamxarj o'tkazish tarafdori bo'lgan jamiyat shakllanishiga ishonch uyg'otadi.

“Vatan tayanchi” harakati a'zolarining harbiy sport mashg'ulotlarini kuzatgan va istalgan o'quvchini o'zi bilan bellashishga taklif etgan.

Shunda maktabning 11-sinf o'quvchisi, “Vatan tayanchi” harakati a'zosi Ulug'bek Otabekov fransuz ofitserining taklifini qabul qilgan. Ular avtomatni sochish-yig'ish va armresting bo'yicha o'zaro kuch sinashgan. E'tiborlisi, Ulug'bek fransiyalik ofitsermi har ikki bellashuvda ham mag'lub etgan. Lekin O'zbekiston Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantiga yutqazgan.

Shu faktning o'ziyoq boshlangan islohotlar, imkoniyatlar berayotgan samarasidir. Endi barcha jabhada taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tish boshlandi. Xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ham. Davlatimiz rahbari yoshlar bilan muloqotida bu boradagi vazifalarni aytib o'tdi. Ya'ni yoshlarimizda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish bo'yicha 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida boshlangan “Vatan tayanchi” harakati kasb-hunar maktabi, texnikum va xususiy ta'lim tashkilotlarida ham yo'lga qo'yilishi belgilandi. Qolaversa, “Vatan tayanchi” o'tryadlari o'rtasida “maktab — tuman — viloyat — respublika” darajasida sport musobaqalari va ijodiy tanlovlar tashkil etiladigan bo'ldi.

Yuqorida dunyoning hozirgi holatini aytdik. Umuman, barcha zamonlarda mamlakat taraqqiyoti faqat uning ilmiy salohiyati, iqtisodiy barqarorligiga bog'liq bo'lib qolmagan. Balki o'sha iqtisodiy to'qlik sabab iligi but, tafakkuri keng, salohiyatli vatan posbonlari kamol topishi muhim bo'lgan. Zero, yurt sarhadini asrash doim dolzarb vazifadir.

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqotida ularning bandligini ta'minlash orqali hayotdan rozi qilish, ilmiy salohiyatini yuqaga chiqarishdan tortib, o'zligini tanish, ulug' ajdodlarga munosib avlod bo'lib kamol topirishgacha bo'lgan kompleks masalalar qamrab olindi. Mutasaddilarga mazkur masalalar yechimiga qaratilgan vazifalar berildi. Bularning har birini bitta maqoladagi fikrlar bilan ifodalab berish mushkul. Ammo bir gapni ta'kidlash kerak, Prezidentimiz: “Bugungi kunda Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bir tarixiy bosqichiga qadam qo'yimoqda. Bu davlatimizdagi ilgari duch kelmayan murakkab vazifalar, g'ov va to'siqlar paydo bo'lishi tabiiy, albatta. Lekin qanchalik qiyin bo'lsin, biz oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarga albatta yetamiz”, dedi.

So'ng yoshlarga murojaat qilib, yurtimizni Uchinchi Renessans diyoriga aylantirishda



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



KO'KATNING BOG'LAMI QANCHA?

Boshlanishi 1-betda

NIYOZBOSH TOMORQALARIDAGI MANZARA

Jurnalistsafardan qaytdi



Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Shu yilning 30-yanvar kuni davlatimiz rahbari tomorqada va ijaraga berilgan ekin yerlarida daromadli mahsulot yetishtirishning yangi tizimi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda oziq-ovqat yetishtirish, aholi bandligini ta'minlash, oilalar daromadini oshirishda tomorqaning ahamiyatiga alohida o'txaldi. O'nlab tumanlarda odamlar tomorqadan 2-3 marta hosil olib, bir sotixdan o'rta 15-20 million so'm daromad topayotgani ta'kidlandi. O'sha hududlar qatorida Yangiyo'l tumani ham bor. Hudud ahli tomorqadan yaxshigina daromad topish imkonligini isbotlab kelyapti. Yana qanday mahsulot deng — ko'katchilikdan. Ayni yig'ilishda yana bir masala o'rta taqashildi. Ma'lum qilinishicha, yangiyo'llik dehqonlar o'zimizning ko'kat urug'lari yo'qolib ketgani, sifatli nav yetishmasligini aytgan. Bular bo'yicha vaziyatni

o'nglash, aholi tashabbuslarini amalga oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

Hadeb yaxshi tajribalarni maqtab- vermasdan, ana shu muammoni o'rganishga ahd qilidik. Masala jiddiy ekaniga ko'ra, jurnalist surishtiruvini ham o'tkazmoqchi bo'ldik. Shu maqsadda Yangiyo'l tumaniga yo'l oldik. Manzilimiz — o'sha mashhur Niyozbosh hududi. Bu yer Yangiyo'l tumanining bir qismi bo'lib, unda 9 ta mahalla joylashgan. Aytishlaricha, ana shu mahallalar ahlining bari faqat ko'kat yetishtirish bilan shug'ullanadi. Tomorqasi-ku, mayli, hatto ko'chasida oziq-ovqat bo'sh yer qolsa ham ko'kat ekib qo'yaveradi. Kimlardir buni asosiy ishga aylantirgan bo'lsa, boshqalar qo'shimcha daromad manbai, deydi.



Shahardan bir necha o'n daqiqali yo'l yurib, hududagi Farovon mahallasiga kirib bordik.

— Mahallamizdagi xonadonlarning tomorqalarida bo'sh yerning o'zi yo'q, aholining hammasi ko'katchilik bilan shug'ullanadi, issiqxonalarda qishin-yozin ko'kat yetishtiriladi, — deydi "Farovon" MFY raisi Jahongir Abduqayumov. — O'zingiz tanlab, istalgan ko'cha, istalgan xonadonga kiring, tomorqasida, albatta, ekin bo'ladi. Bahorda keling, yozda keling demayman. Hozir birma-bir xonadonlarga kiramiz, piyoz, ko'kat o'sib yotganiga guvoh bo'lalim. Shu o'rinda bir voqeani eslasam. 2019-yil may oylari — mahalla raisi sifatida ish boshlaganimga 5 kungina bo'lgan. To'satdan katta bir tashkilotdan mas'ul keldi. Qattiqroq ohangda xonadonlarga olib kirishimni talab qildi, agar tomorqalar bo'sh turgan bo'lsa, jiddiy chora ko'rishlarini aytdi. Qaysi ko'cha, qaysi xonadonga kirishni o'zi tanladi. Bariga kirdik va hammasida ekin ekilganini ko'rib uyalib qoldi. Ya'ni odamlarimiz tomorqani sira bo'sh qoldirmaydi, ketini uzmasdan ko'kat yetishtiradi. Masalan, piyoz yigirma kun — bir oyda tayyor bo'lsa, uning orqasidan boshqa ko'katlar ekiladi. Yoz oylarida pomidor, bulg'or qalpamiri yetishtirilganlar bor. Yoki salat barglari ekiladi. Xullas, niyozboshliklar tomorqadan kuniga daromad topib, aksari shuning orqasidan ro'zg'or tebratadi, to'y qiladi, uy quradi. Keling, kichik hisob-kitob qilib ko'ramiz. Masalan, ikki metrli joyga kashnich ekilsa, 25-30 kunda tayyor bo'ladi. Sotganda 300-400 ming so'm tushadi. Har bir issiqxonada shunday hajmdagi poldan 15-16 ta bor. Ana endi, daromadni hisoblayvering. Odamlarimiz ana shu kunlik daromadga o'rganagan. Hatto boshqa kasbda ishlaydiganlar ham qo'shimcha daromad sifatida ko'kat yetishtiradi. Maqtanish bo'lmasin-ku, Toshkent shahri va bir qancha viloyatlardagi ko'plab dehqon bozorlarini niyozboshliklar ko'kat bilan ta'minlaydi. Hatto qo'shni davlatlarda ham hudud nomi mashhur. Bir oyda Niyozboshning o'zidan xorijga 5-6 ta yuk mashinasida ko'kat chiqib ketadi. Mavsum vaqtlari 30-40 tagacha yetadi. Har bir furaga 15-16 tonna mahsulot ketadi. Eksport qilinmagan ko'katlar mahalliy bozorda sotiladi. Narx juda

pastlab ketgan taqdirda ham, hech bo'lmaganda, xarajatini qoplaydi.

Jahongir aka bilan suhbatimiz qizib ketdi. Tezroq xonadonlarga kirishni istayotgan bo'lsam ham avval savollaringa javob olish zarurati kuchliroq keldi. Ularni tinglaganim sari "Nega bu yerda faqat aynan ko'kat yetishtiriladi, odamlar qachon bunga o'rganagan" degan savol o'ylantirdi. Mahalla raisi shu bilan bog'liq ota-bobolaridan eshitgan bir voqeani aytib berdi: "Avvallari yangiyo'lliklar uzumchilik bilan shug'ullangan ekan. Rostmi-yolg'onmi, bir paytlar Jambil mahallasida bir xorijlik odam hovlisida ko'kat o'stiradi. Har kuni xaltasiga ko'kat solib, bozorga olib chiqadi. Qizig'i, odamlar uzumni xorijga mavsumda eksport qilsa, o'sha kishi deyarli yil bo'yi ko'kat sotib, daromad topgan. Shundan boshqalarda ham ko'katchilikka qiziqish paydo bo'lgan, deydiladi".

Bu voqea qanchalik haqiqat, bilmaymiz, ammo hozir Yangiyo'lning ko'kat yetishtirish tajribasiga qiziquvchilar ko'p. Kichik yer maydonida ham, buning ustiga, yil davomida yaxshigina daromad qilish chindan samarali usul. Shungani, tajribani o'rganayotgan hududlar soni oshib boryapti. Aytishlaricha, Bekobod, Surxondaryoning ko'p tumanlarida allaqachon ko'katchilik ommalashdi. Yangiyo'lga yer tanqisroq bo'lgani sababli tub aholi boshqa hududlarga borib ko'kat yetishtirayotgani ortidan ularni ham shu ishga qiziqitirib, o'rgatayapti. Surxondaryodagi katta dalalarda shiv'at ekiyapti. Yangiyo'lidagi tomorqalarning o'zida esa ko'katning istalgan turi — kashnich, piyoz, rukollo, rozmarin, salat barglari yetishtiriladi. Odamlar mavsumga qarab yerga urug'lik sepaveradi.

Mahalla raisi yana o'sha gapni takrorladi: "Shu yerdan chiqib piyoda yuramiz va siz istagan xonadonga kiramiz, tomorqalarini o'zingiz ko'rasiz. Biorota xonadonda bo'sh turgan yer yo'q!". Bunga o'zimizning ham ishonchimiz orib borayotgandir. Fotomuxbir sherigim va mahalla raisi bilan birgalikda xonadonlar tomon yuridik. Yo'lda obodonlashtirish xodimlarini ko'rganimizda bahor yaqinligi yodimizga tushdi. Ammo bunga hali vaqt bor. Havo esa ancha sovuq. Hatto sal oldin qor ham yog'ib o'tdi.

KAM XARAJAT QILIB, KO'P DAROMAD OLISH MUMKIN

Bir necha qadam yurib, yo'limizdan chiqqan birinchi xonadon eshigini qoqdik. Yoshi katta ayol kutib oldi. Maqsadimizni aytganimiz hamon darrov "Issiqxonada hali yetilgan ekinlar yo'q, piyoz ekilgan, xolos, u ham kichikroq", desa bo'ladimi? O'zimizcha birinchi harakatdavoq raisni shoshirib qo'ygandek bo'ldik. Jahongir aka esa baribir issiqxonaga kirishimni aytdi. Quruq yerni ko'ramiz, deb o'ylagandik ayolning vahimasidan. Yo'q, issiqxonaga ekilgan piyoz ko'karib, ancha yetilib qolibdi. Opaning kamtarlik qilganini shunda tushundik. Savollarimizga ham iymonibgina javob berdi.

— Shu xonadonga kelin bo'lib tushganimga 35 yildan oshgan bo'lsa, o'shandan beri tomorqada ko'kat yetishtiramiz, — deydi Dilfuza Qo'chqorova. — Ro'zg'orimiz ham, daromadimiz ham shundan. Ikki o'g'lim davlat ishida ishlaydi. Ularning oylik maoshini to'playmiz. Kunlik xarajalarimiz esa tomorqadan qoplanadi. Yil bo'yi yerni bo'sh qoldirmay, ko'kat ekamiz. Piyoz, rukollo, petrushka, o'smani aralash qilib ekaveramiz. Xaridorlarning o'zi olib ketadi, bo'lmasa bozorga olib chiqamiz. Kunlik daromadimiz bor, dasturxonimiz to'kin. Issiqxonada maydoni 2 sotixlar bo'lsa kerak, anig'ini bilmayman. Avvallari bulg'or qalpamiri ham ekannimiz, lekin yer xohlamay qolgan, xarajati ham katta uning. Ko'kat esa kam xarajat talab qiladi, mehnati ham og'ir emas, ammo daromadi yaxshi. Har holda doim iste'mol qilinadigan mahsulot-da.

Farovon mahallasi ahli ko'katlarni issiqxonada yetishtiradi. Chunki qishda bu ancha qulay. Hududda 679 ta xonadon bo'lsa, shundan 647 tasida issiqxonaga bor. Yana bir o'ziga xosligi, oxirgi yillarda ko'katni saqlash, eksport qilish ham rivojlanib borayotir. Aholi yetishtirgan piyoz, ko'katlarni eksportchi tadbirkorlarning

o'zi sotib olib, muzxonalariga joylaydi va narx qimmatlagan paytda xorijga jo'natib, daromad qiladi. Hozirgi kunda Farovon mahallasining o'zida 3 ta muzxona bor. Boshqa mahallalarda ham muzxonalar ko'paygan. Tadbirkorlarga muzxonalarini imtiyozli kredit asosida olishda hokim yordamchilari ko'p makchi bo'lyapti. Ko'katlar asosan, Rossiya, Qozog'istonga eksport qilinadi. Ammo Yevropa bozorlariga chiqayotganlar ham yo'q emas. Faqat Yevropa talabi yuqoriroq, unga mos mahsulot yetishtirish kerak, yetkazib berish yana alohida masala.

Mahallada ishsizlar ham yo'q emas. Ammo bari o'zini o'zi band qilib, tomorqasini yurgizishda yordam so'rab kelib. Oylik maosh to'lanadigan ishlarni ko'p rad etadi, chunki kunlik daromadga o'rganagan. Imtiyozli kredit olgani ham darrov tomorqasiga ko'kat ekadi. Ham tomorqadan unumli foydalanyapti, ham shu yo'nalishni biznesga aylantirgan.

Suhbatimiz qizib, navbatdagi xonadonga kirdik. Issiqxonaga ichidan bir ayol chiqib keldi. Tashqarida tozalangan piyoz po'stlari. Demak, mahsulot

yetilib, sotila boshlagan. Xonadon egasi Shahlo opa buni tasdiqladi. Piyozni yig'ishtirib, xaridorga tayyor qilib qo'yibdi. Qizig'i, bu ayol ham birdaniga "Piyozlarning bir qismini uzib bo'ldik, tomorqada deyarli ko'karib turgan ekin yo'q", dedi. Bu gal ham unga ishonmay, to'g'ri issiqxonaga kirdik. Piyoz bir tekis, shunday chiroyli ko'karib turibdi, tashqarida qish ekani odamning yodidan chiqadi. Faqat mehnatkash qo'llariga shunday sovuq havoda ham mahsulot yetishtira oladi.

Shahlo opa 56 yosh bo'lishiga qaramay, tomorqadagi asosiy ishni o'zi uddalar ekan. Turmush o'rtog'i yordamlashib turadi, qaramog'ida qolgan nabirasi esa hali kichik. Yollanma ishchi ishlatmaydi, daromad o'zimizga qolsin deydi. U ham kelin bo'lib tushganidan buyon ko'katchilik bilan shug'ullanadi. Hozir oilaning asosiy daromadi shundan.

— Odam ishlatsak ham xarajati qoplaydi, lekin istamayman. Baribir uyda o'tirsam, o'zimiz ishlayveraman tomorqada, — deydi



SIFATLI URUG' — EKSPORTBOP MAHSULOT

Ota-bobolarimiz tomorqa — xazinada deb bejiz aytmagan. Buni xalqimiz keyingi yillarda yanada yaxshiroq tushunib yetiyapti. Chunki borgan sari kichik yer maydoni ham iqtisodiy aktivga aylanib, odamlar undan qo'shimcha daromad topish hadisini o'ylaydi.

Hozirgi kunda 5 milliondan ziyod xonadonda 508 ming gektar tomorqa, avval tashkil etilgan dehqon xo'jaliklarida 17 ming gektar va so'ngi yillarda aholiga tarqatilgan 260 ming gektar yer bor. Bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eng katta xazira. Asosiy, odamlar yer bilan ishlashni, zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llashni yaxshi o'rgandi. Ilgari tomorqada gektaridan o'rta 18 tonna mahsulot olingan bo'lsa, endi bu 2 karra oshib, 38 tonnaga yetdi.

Farovon mahallasida yana bir necha xonadonga kirdik. Uy egalarning ko'pi tomorqasida yetilgan piyozlarni yig'ib, xaridorga taxt qilib qo'ygan. Bu insonlarning har biri bilan gaplashib zavq oldim, ochig'i. Sodda, kamtar, qilgan mehnatini arzimasa hisoblar ekan. Mahalladagi fayz ham o'zgacha. Ko'chalar tartibli, yo'llar tekis. Gap orasida bizga hamrohlik qilayotgan raisga "Mahallaning yo'llari yaxshi ekan, ichkari qismlari ham ta'mirlalab, o'nqir-cho'nqir bo'lib ketmagan" desak, bunga javoban, "Yo'q, notekis yo'llarimiz ham bor, sizga ko'rsataman", desa bo'ladimi? Odatda biror hududga borsak, notekis yo'llarni ko'rsatmaslikka urinishadi, Jahongir aka



esa o'zi ko'rsatmoqchi bo'ldi. Bir ko'chaga boshlab, "Mana, shunday yo'l", deydi. Fotomuxbir sherigim bilan kulib yubordik. Chunki rais yomon, deb aytayotgan yo'l ham tekis, faqat o'zgina chuqurliklari bor. Ancha ichkariga kirdik hamki, yo'llar juda yaxshi edi. Raisning aytishicha, ko'chalardagi yo'llarning ko'piga tadbirkorlar o'z tashabbusi bilan asfalt yotqizib bergan. Avvalroq raisning "Mahalla odamlarining ko'pi yaxshi yashaydi, hammasi shu ko'katchilik ortidan" degan gapiga endi ishonдик.

Ammo Niyozbosh hududi faqat shu mahalladan iborat emas. Boshqa mahallalarda ham xuddi shunday ko'katchilik rivojlangan. O'zgina yurib, qo'shni Guliston mahallasiga o'tdik. Mahalla raisi Hamidilla Sunnatovning aytishicha, bu yerda 774 ta xonadon bo'lib, 4742 kishi istiqomat qiladi. Hammasi ko'katchilik bilan shug'ullanadi. Odamlar mahalliy ko'kat urug'larini ham ekadi, ammo xorijnikiga talab bo'proq ekan. Chunki xorij urug'i ancha sifatli, ko'rinishi chiroyli, bozorbop. Qolaversa, xorij navlari nisbatan chidamli bo'ladi, kashnich barglari esa shapaloq bo'lib chiqadi, o'zimizniki kabi qaychibarg bo'lib qolmaydi. Narxi mahalliy urug'larga nisbatan bir necha barobar qimmat bo'lsa ham aholi sotib oladi. Mahsulot yetilgach, xarajati bemaol qoplaydi. Ammo mahalliy ko'kat navlarining ham sifati yomon emasligi, ichki va tashqi bozorda talab borligini aytishdi.

Urug' navlari haqida so'raganimiz bejiz emas. Boisi, yuqorida ta'kidlaganimdek, Prezident raisligida o'tgan yig'ilishda o'zimizning ko'kat urug'lari yo'qolib ketgani, sifati nav yetishmasligi masalasi ko'tarilib, mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berilgan. Tumanga kelish maqsadimizdan biri ham ana shu masalani o'rganish edi. Hamidilla akaning aytishicha, bir necha kun oldin Respublika agroxizmatlar milliy markazi (AKIS)dan mutasaddi kelib, shu bo'yicha ko'rilayotgan choralar, qilinadigan ishlar haqida gapirgan. Suhbatimizni chala qoldirib, biz kirib borgan xonadon egasini chaqirdik. Kutib olgan kishi issiqxonaga kiraverishimni aytib, yo'l ko'rsatdi. Issiqxonaning o'rta sidiq bar ayol o'tirib, ko'kat bog'layapti. Ichkari yam-yashil, turli ko'katlar o'sib turibdi. Bir tomondan shpinat (ismaloqning bir turi), boshqasida kashnich. Darrov narx-navo va daromadi bilan qiziqdik.

— Shpinatning bitta bog'lami 5-6 ming, kashnich esa 5 ming so'mdan olinayapti. Kuniga 30-40 bog'lami sotaymiz har biridan. Xaridorlarning o'zi kelib, olib ketadi, — deydi "Guliston" MFYda yashovchi Gulnora Badirova. — Issiqxonada maydoni 3 sotixlar bo'lsa kerak. Qishin-yozin ko'kat yetishtiramiz. O'lishda 11 kishimiz, o'g'illarim davlat ishida. Tomorqa qo'shimcha

Shahlo Yo'lichiyeva. — Er-xotin hali nafaqa olmaymiz, daromadimiz shu yerdan. Issiqxonada maydoni 2 sotix atrofidan. Qishin-yozin tindirmay ko'kat ekamiz. Yozi bilan rayhon sepiyadi, kuzda piyoz. Parallel tarzda kashnich va boshqa ko'katlar ham yetishtiraveramiz. Piyoz ham, ko'katlar ham issiqda bir oylarda, sovuqda 40 kunlarda tayyor bo'ladi. Issiqxonada termos qilinib, ikki qavat plyonka yopilgan. Avvallari gaz, ko'mir yoqardik, hozir uning xarajati katta. Plyonkada isitish qulay, ekin sal kechroq yetilsa ham xarajati kam. Piyoz va ko'katlarga ortiqcha issiq shart emas, juda borsa, yoysimon usulda ekinlarning ustidan bir necha metr balandlikda yana plyonka yopiladi. Ko'katlar uzilishi bilan yangidan ekilaveradi. Tayyor mahsulotni xaridorlarning o'zi olib ketadi. Boshqa mahsulot yetishtirish haqida o'ylab ko'rmaganimiz, chunki hududimiz azaldan ko'katchilikka moslashgan. To'g'ri, o'ziga yarasha mehnati bor, ammo foydasi yaxshi. Masalan, 5 ming bog' piyoz bog'ining bir donasi 1000 so'mdan sotilganda ham 5 million so'm bo'ladi. Kamida 3 barobar foyda qolayapti. Ana shu ko'katchilik ortidan o'g'il uylantirib, qiz uzatdik. Birovdan qarzimiz, muhtojligimiz yo'q, ro'zg'orimiz but, shukur.

Mahallaning bir necha xonadoniga kirdik hamki, bo'sh turgan tomorqaga ko'zimiz tushmadi. Hammasida yoki piyoz, yoki ko'kat o'sib turibdi. Tush payti bo'lsa-da, hech bir kishi uyining ichidan chiqib kelmadi. Aksari tomorqasidan chiqib, kutib oldi. Biri ekinlarni parvarishlayotgan bo'lsa, boshqalari hosilni uzish bilan band. Havo esa anchagina sovuq. Biz hatto qo'limizni cho'ntagimizdan chiqarishga erinayotgan bunday haroratda yangiyo'lliklar yeng shimarib tomorqada mehnat qilyapti. Qizig'i, hech biri bundan nolimadi, aksincha, kunlik daromadi yaxshi ekan, shunga o'rganib qolganini aytdi.



daromad manbaimiz, ro'zg'orimiz shundan. Ko'katchilikdan yaxshi foyda olsa bo'ladi, doimiy parvarish qilinsa kifoya. Asosan, xorij urug'larini ekamiz. O'zgina qimmatroq bo'lsa ham bozorda tez ketadi. Masalan, xorijiy shpinat urug'ining kilosi 700-800 ming so'm bo'lsa, mahalliy urug' 30 mingdan 100 ming so'mgacha. Menga 300 gramm urug' yetarli, 150 ming so'mga aylanadi. Bu xarajat issiqxonadagi bitta polning o'zidan chiqib ketadi.

Xonadondan chiqi turib, yana boyagi masalaga qaytdik. AKISning mahallaga kelgan vakili Niyozbosh hududi markaziga konteyner qo'yilib, o'zimizning mahalliy urug'lar arzonlashtirilgan narxlarda olib kelinishi, yerning quvvatini o'chaydigan apparatlar o'rnatilishi va boshqa vazifalarni aytgan. Toshkentga kelib, uylar bilan bog'landim. Qo'shimcha ma'lumotlar oldim.

— Mutaxassislar va ilmiy xodimlardan iborat ishchi guruh Yangiyo'l tumani Niyozbosh qishlog'ida bo'ldik, — deydi Respublika agroxizmatlar milliy markazi direktori Bunyod Mamarahimov. — Jarayonda aholi tomorqalarida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi ekinlarining holati, ularni yetishtirishdagi muammolar o'rganildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali aholi daromadini ko'paytirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar berildi. Bundan tashqari, ayni kunlarda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, talab etiladigan moddiy-texnik resurslarini yetkazib berish bo'yicha izchil sa'y-harakatlar qilinmoqda. Niyozbosh hududida ko'chma agroxizmat ko'rsatish markazlari tashkil etish rejalashtirilgan. Ularda mahalliy va yangi navlarning sifati urug'liklari arzon narxlarda sotiladi.



"HAMMA PUL KO'KATCHILARDA(MI)?"

Hamrohimiz Jahongir aka yana bir necha xonadonga olib kirdi. Baring tomorqasida o'sha manzara — piyoz yoki ko'kat ekilgan. Xonadon egalari esa issiqxonada tomorqasidan Farovon mahallasida yashayotgan Muhabbat opa Mahkamovaning turmush o'rtog'i tadbirkor. Oilada 10 kishi yashaydi, deyarli hammalari oilaviy oshxona, do'konlarida ishlayshar ekan. Shunga qaramay, tomorqalari ham bo'sh qolmagan. Kirib borganimizda turli ko'katlarga ko'zimiz tushdi. Tomchilab sug'orish texnologiyasi ham o'rnatilgan. Xonadon egasining aytishicha, tomorqa qo'shimcha daromad manbai, qolaversa, bolalarni mehnatga o'rgatadi.

Biz kirgan oxirgi xonadon egasi Akbar aka Muhammadov esa ancha dangal, ochiq odam ekan. 2 sotixlar chiqadigan tomorqasidan yaxshi daromad olishi, ketini uzmay piyoz yetishtirib, buning ortidan uy ko'targani, chorva mollari olib, issiqxonaga qurgani, yaqinda "Damas" avtomashinasini xarid qilganini ham yashirmadi. Ammo baribir sodda, kamtarligi bor. Meni olib chiqqanglar, rasmga olmag'lar, piyozlarning kir qismini yig'ib olib, sotib bo'ldik, issiqxonada ko'p narsa yo'q deb turib oldi. Ammo ichkariga kirsak, buning mullaqo aks. Piyoz shunaqa chiroyli, bir tekis ko'karib turibdi, odamning havasi keladi.

Shularni ko'rib, bir xulosaga keldim. Bu yerlik aholining ko'pi oylik maoshiga ishlay olmaydi, ishlaydigan ham tomorqasini qo'shimcha daromad manbaiga aylantirib olgan. Mehnat qilsa, to'g'ri foydalansa, tomorqadan yaxshigina daromad qilsa bo'ladi. Buni urug' o'z hayoti, mehnati misolida ko'rib, bilib turibdi.

Yana bir gap. Davlatimiz rahbari topshirig'i bilan endilikda tomorqa va dehqonchilik yerlarida yuqori daromadli va eksportbop ekinlar ekish, ularning hisobini yuritish hamda moliyalashtirish bo'yicha yangi tashabbuslar qo'llaniladi. Jumladan, tomorqa xizmatlarini yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga 7 yil muddatga 17,5 foizli imtiyozli kredit ajratiladi. Yerdan samarali foydalanib, bir sotixda 5 million so'mdan yuqori rasmiy daromad oloyotgan dehqonlarga yer solig'ining 90 foiz keshbek sifatida qaytarib beriladi. Aksincha, tomorqasiga ekin ekmag'nlardan yer solig'i oshirilgan miqdorda undiriladi.

Yangiyo'lga ko'katchilik rivojlangani, har bir xonadon tomorqasida ko'kat yetishtirish haqidagi gaplar rost ekan. Odamlardagi bir necha jihat e'tiborimizni tortdi: aksari ayollar kelin bo'lib tushganidan beri xonadonida ko'katchilik qilarkan, ko'p xonadonlar issiqxonasi hajmi qancha ekanini hatto bilmadi, eng e'tiborlisi, deyarli barcha qilyotgan ishidan zavqlanadi va bironva maqtanmaydi. Ular doim mehnatda ekan, bironva qaram emasligi uchun ham hammadan boyroq.

Umuman, Yangiyo'lidagi tomorqadan unumli foydalanish, ko'kat yetishtirish tajribasini xuddi Sayxunobod, G'ijduvon va boshqa hududlar tajribasi kabi ommalashtirsa bo'ladi, nazarimizda. Ayniqsa, Niyozbosh hududida bo'sh turgan tomorqa maydonini topa olmaymiz. Tan berdik. Qaytishda hovlimizdagi qo'shimcha daromad manbaiga aylantirib olgan. Mehnat qilsa, to'g'ri foydalansa, tomorqadan yaxshigina daromad qilsa bo'ladi. Buni urug' o'z hayoti, mehnati misolida ko'rib, bilib turibdi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Vatanparvarlik ruhi

SADOQAT — HAR BIRIMIZNING MA'NAVYI QUDRATIMIZ BO'LISHI KERAK

Boshlanishi 1-betda

Olimjon O'SAROV: — Har yilning yanvar oyi xalqimizda bir ulug' ko'tarinkilik ruhan tetiklik bilan boshlanadi. 2025-yil ham shunday shukuhli keldi. Hammamiz, kasbimizdan qat'i nazar, bir-birimizni 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni bilan tabrikladik. Bir-birimizga ijtimoiy tarmoqlardan tabriknomalar yo'ladik. Ularda hammamizning jon-u jahonimiz — O'zbekistonimizga muhabbatimizni izhor qildik, bo'lishdik. Bu bejiz emas. Biz vatanparvar, qahramon bobolarimiz avlodimiz. Azaldan xalq rahnamolari yoshlarni Vatanga sadoqatli bo'lishga da'vat qilib kelgan. Har bir zamon, davr ulardan buning tasdiq'ini, namoyishini kutgan, ko'rgan. Yoshlarga Vatanga sadoqatning neli, ma'nosi tushuntirilgan. Dostonlarda kuylab qalblarga sadoqat quyilgan. Ma'naviy qurollantirilgan. Bu esa bugungi kun uchun eng zarur fazilatlarimiz yoshlar xulqiga ko'chishiga xizmat qilgan. Mana shu an'ana yangi tuzda, zamon bilan hamqadamligini ko'rib, ichdan suyunib yashaymiz. Buning boisi, yoshlarimiz, harbiy xizmatchilarimiz so'zlaridagi, siymosidagi, niyatidagi, xulqidagi sadoqatdan xotirjamiz. Lekin sadoqat ham parvarish qilib, kuchaytirib turilishi zarur. Shunday emasmi?

Muhammadjon QURONOV: — Sadoqat — ma'naviy hodisa. U o'zidan o'zi paydo bo'lmagan, bo'lmaydi. Shuning uchun azaldan ota-bobalarimiz ma'qol, ertak, doston to'g'ib, kuyga solib, aytib, sadoqat urfni yoshlarga o'rgatib kelgan. Sadoqat o'zlik yo begonalik masalasi. U ketsa, o'rinni xiyonat egallaydi. Doim shunday bo'lgan, hozir ham shunday. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalarida qilgan Murojaatnomasida "O'zimiz o'zimizga xiyonat qilmasak, o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol-pok bo'lib mehnat qilsak, men aminman, ko'zlagan barcha marralarimizga albatta yetamiz...". deya mas'uliyatga, safarbarlikka, Vatanga sadoqatli bo'lishga da'vatini buning yaqol misolidir. Chunki bugun kechagidek o'ylasak, ishlasak, kechagidek yashayveramiz. Biz milliy yuksalishning Yangi O'zbekiston fazasiga kirdik. Yuksalish tiklanishdan ko'ra, ko'p kuch, energiyani talab qiladi. Chunki yuksalish — perpendikulyar harakat.

Olimjon O'SAROV: — Bunday paytda "Biz bir oddiy odam bo'lsak, bizga qarab qolibdirmi? Boshqalar bor-ku" deb o'zini chetga olib turuvchilar ham bo'lgan. Biroq bu yumshoq qilib aytganda, loqaydik, befarqlik, begonalik. Loqayd qancha ko'p bo'lsa, sodiq vatanparvarlar yelkasi shuncha ko'proq qavardir. Biz murabbiylar bunga yo'l qo'yamiz degan kerak. O'zbekiston — 37 million hujayradan iborat bir jonu bir tanli organizm. Tariximiz ham, taqdirimiz ham shu Vatanda — O'zbekistonda. Unga bir farzand bo'lib, qiladigan xizmatimiz qanday, qancha bo'lishi har birimizning Vatanga sadoqatini bugun qanday tushunishimizga, unga qanchalik amal qilishimizga bog'liq.

Muhammadjon QURONOV: — Juda topib aytdingiz, Olimjon. Bir pedagog sifatida

men ham bir savolga javobni ko'p o'ylayman. Vatanga sadoqat nimada ko'rinadi? Dildami, tildami, qo'ldami, ishdami? Bu savolga har bir yigit-qizimizning o'z, shaxsiy, keskir javobi bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, sadoqatni kinofilm, spektakl, kitob, qo'shiqlardan hayotga olib chiqishimiz kerak. Toki to'rt tomonimizda Vatanim deb o'z sohasida sadoqat ko'rsatayotgan millionlab yigit-qizlarni ko'raylik. Aks holda, sadoqat dilda yo tilda qolib ketishi mumkin.

Olimjon O'SAROV: — Vatanga sodiqlik — fazilat. Vatanga sadoqat bugun bizdan nimalarni talab qilyapti? Mehr va safarbarlikni, amaliy ishlarni. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, "Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug' maqsadlar yo'lida barchamiz belimizni mahkam bog'lab ishlashimiz, bor aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni, jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak".

Vatanga sadoqat deganimizda ko'hna tarix, sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, jaddid bobolarimiz, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, ulardan so'ng mustaqilligimiz himoyachilarining jasoratini gavaladani. Chunki ular o'z zamonasi da'vatidan kelib chiqib, Prezidentimiz aytganidek, "Bor aql-zakovati, bilim va tajribasini, jonajon Vatanimizga farzandlik mehri va sadoqatini safarbar etishgan". Bugun dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o'ta murakkab vaziyat bizdan sadoqatning ma'nosini bugungi kun shiddatidan kelib chiqib tushinishni talab qilmoqda. Bu bizdan Vatanga sadoqatni ertaga, kelajakda emas, bugun ko'rsatishni talab etmoqda.

Muhammadjon QURONOV: — Buning uchun "safarbar sadoqat"ning bugungi talabari qanday? Bugun Vatanga sodiq inson qanday bo'lishi kerak? Vatan bizdek o'g'il-qizlarning yolg'izligi uchun biz amalda nimalarni qilishimiz, nimalardan tilyilishimiz kerak? Yoki nega bayrog'imizni, undagi moviy rang — sadoqat timsolini boshimizdan ham baland tutamiz, degan savollarga shaxsiy javoblarimiz bo'lishi lozim.

Masalaga ilmiy yondashmasak, sadoqat balandparvoz so'zga aylanadi. Adashimiz. Chunki ilm — xolislik degani. Sadoqat nima? Ilmiy adabiyotlarda unga — odamning qudrati, unga ta'sir qiladigan voqea, tashqi yoki ichki omillar, aldovlar qarshiligiga dosh beruvchi, toblangan ichki "umurtqasi" kuchining namoyon bo'lishi; odamning o'zi aytayotgan so'z'lari, pozitsiyasi, yondashuvi haqligiga qattiq ishonishi, deyiladi.

Sadoqat odamning Vatani, unga ishongan, uning sevgan kishilari oldidagi burchini anglashidan kelib chiquvchi fidoyiligi, yorvarimligi. Uning ma'nosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da do'stlik, birdamlik, samimiylig; chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlik degan sadoqatga "qarindosh" so'zlarda ochib berilgan. Demak, bu so'zlar, ularning ma'nolari (ma'naviyatini) har bir



harbiy xizmatchi qalbiga jo qilib olishi kerak. Ana shunda u nafaqat jismoniy kuchga, balki qudratli ma'naviy kuchga ega bo'ladi.

Olimjon O'SAROV: — Darvoqe, dunyo tajribasiga qarasaq, harbiy sohada ikki yo'nalishda doimiy tayyorgarlikka erishish uqitirib kelganini ko'ramiz. Bular Qurolli Kuchlarning ma'naviy va jangovar tayyorgarligi. Masalan, AQSH Mudofaa vazirligiga qarashli Qurolli Kuchlar maktabi tomonidan chop qilingan hujjatlarida "Barcha darajadagi armiya rahbarlari Amerika xalqining ishonchini qozonish va xizmat qilish uchun yuqori axloqiy-ma'naviy standartlarni ishlab chiqish va saqlash uchun javobgardir" deb qayd qilingan. Unga ko'ra, AQSH Qurolli Kuchlarining ma'naviy-ruhiiy takomiliga sabab harbiy xizmatchilar ma'naviy-ruhiiy kamolotini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot faoliyatining samarali yo'lga qo'yilgani bilan izohlanadi.

Ma'naviy tayyorgarlik nemis armiyasida ham ustuvor sanaladi. Germaniya armiyasi xizmatchilari 14 ta ma'naviy-axloqiy tamoyilga amal qiladi. Bu tamoyillarning birinchisi — Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, deb belgilangan. Nemis yoshlari orasida harbiy xizmatga qiziqishni oshirish, bo'lajak harbiy xizmatchilarni tanlash, tayyorlash bo'yicha ma'naviy-axloqiy talablar belgilangan. Buyuk Britaniya harbiy rahbariyati tomonidan ommaviy axborot vositalarida targ'ibotni kuchaytirish orqali jangovar ruhi oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muhammadjon QURONOV: — Bu fikringiz menga generallar orasida o'zaro aytib yuriladigan bir harbiy maqolani eslatdi. Unda "Jangovar tayyorgarlik muhim. Lekin o'qni qayoqqa qarab o'tishni askarga mafkuraviy tayyorgarlik ko'rsatadi", deyiladi. Shuning uchun vatanparvarlik mafkurasini milliy darajaga ko'tarishda tarbiya ilmi, pedagogikadan unumli foydalanilayapti. Masalan, Xitoy pedagogikasining asosiy g'oyasi milliy vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq. Xitoy tadqiqot matbuoti materiallarida

"Vatanparvarlik — bu xitoyliklarning eng yaxshi an'anasi va milliy fazilati" degan g'oya singdirib kelinmoqda.

Olimjon O'SAROV: — Vatanga sadoqat — sinov. Uning sinovlaridan o'tish oson emas. Sadoqat — odamdagi kuchli ma'naviyatning kuchli xarakteri borligining belgisi. Shuning uchun harbiy xizmatchilarning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy shay bo'lishining ahamiyati o'ta muhim.

Chunki sadoqat — ma'naviyat masalasi. U odamning Vatan oldidagi o'z burchlarini bilishiga, tushunishiga, anglashiga quriladi. Burchni oqlash esa oson emas. U qiyinchiliklardan chekinmaslikni, toymaslikni, qaytmaslikni, ularni mardona, chidam bilan bartaraf qilishni, o'zini qiyinlashi talab qiladi. Hayotda uchraydigan chalg'ituvchi manfa'at, yengillik, makr-aldovlarga uchmaslikni, qancha qiyin bo'lmasin, unga ishonib, topshirilgan ishonchni oqlab, natijaga erishishni, matonatl bo'lishga undaydi.

Sadoqat ishonchni ustiga quriladi. Ishonch esa ishonitirishning natijasi. Ana shunda qattiq ishonch katta sadoqatni talab qiladi. Uni oqlash uchun odamdagi barcha yaxshi fazilatlar yoqqa turadi, ishga tushadi. Sadoqat egasining yuzini yorug' qiladi. Bundan odamning o'ziga ishonchi, hurmati ortadi. Odamlar oldida tutgan o'rni, qadr-qimmatini mustahkamlanadi. Undan o'z odamlarining hurmati, do'stligi, muhabbati oshadi. Bu esa har bir insonning orzusi, shunday emasmi?

Muhammadjon QURONOV: — Juda to'g'ri aytdingiz. Har birimizda Vatanga sadoqatning yoki bu darajasi bor. Gap ana shu sadoqatni anglab, o'ziga o'zi yuqoridagi savollarni berib, oshirib, o'zini har kuni, o'z ish joyida, postida safarbar etishda. Barcha sohalarida Vatanga sadoqatni namoyon qilish uchun imkoniyatlar ko'p. Ammo ayrim yoshlarimiz uni kundalik hayotda qanday namoyon qilishni bilishmaydi. Ular vatanparvarlik qandaydir favquloddiy vaziyatlarda namoyon bo'ladi deb o'ylashadi. Kuch, g'ayrati bor, ammo uni qayerga sarflashni

bilmaydigan kishidek. Bu savol nafaqat bizning, balki dunyoning ko'pchilik yoshlarida bor. Demak, qaysi mamlakat yoshlarida mana shu g'ayrat, pok niyat bilim, ma'naviyat bilan boyitilsa, maqsadga yo'naltirilsa, o'sha tez rivojlanar ekan.

Olimjon O'SAROV: — O'qituvchi-murabbiylar, serjantlarning Vatanga sadoqati bosh jihati "yoshlarimiz qalbi va ongiga ona Vatanga sadoqat tuyg'usini singdirish"da ekani ochib berildi. "Bunga tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" erishilishi aniq berildi. Gap shundaki, sadoqatning ziddi — xiyonat ham sohaviy xususiyatga ega-da.

Prezidentimizning "Biz qanday marraga erishmoqchi bo'lsak, unga faqat ona yurtimizga mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik bilan erishamiz", degan fikrida sadoqatning umumiy va xususiy, sohaviy mohiyati ochib berilgan. Demak, bugun bizdan mehnatda, o'z kasbiy burchiga sadoqat talab etilmoqda. Bu har birimizga har kuni berilayotgan imkoniyat. Masalan, sportchi yoshlarimizning Vatanga sadoqati ularning g'alabalarida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda ularning g'alabalarini yoshlarimizga ibrat bo'lib, ularni Vatanga sadoqatni tarbiyalamoqda.

Muhammadjon QURONOV: — Insoniyat tarixi sadoqat nafaqat kuchli, qudratli jins — erkaklarga, balki ayollarga ham xosligini ko'p ko'rgan. Ma'naviyati kuchli ayollar azaldan sadoqat ramzi bo'lib kelgan. Biz oilamiz darajasida, o'z kasbiy burchiga sadoqat berilgan. Demak, bugun bizdan mehnatda, o'z kasbiy burchiga sadoqat talab etilmoqda. Bu har birimizga har kuni berilayotgan imkoniyat. Masalan, sportchi yoshlarimizning Vatanga sadoqati ularning g'alabalarida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda ularning g'alabalarini yoshlarimizga ibrat bo'lib, ularni Vatanga sadoqatni tarbiyalamoqda.

Muhammadjon QURONOV: — Insoniyat tarixi sadoqat nafaqat kuchli, qudratli jins — erkaklarga, balki ayollarga ham xosligini ko'p ko'rgan. Ma'naviyati kuchli ayollar azaldan sadoqat ramzi bo'lib kelgan. Biz oilamiz darajasida, o'z kasbiy burchiga sadoqat berilgan. Demak, bugun bizdan mehnatda, o'z kasbiy burchiga sadoqat talab etilmoqda. Bu har birimizga har kuni berilayotgan imkoniyat. Masalan, sportchi yoshlarimizning Vatanga sadoqati ularning g'alabalarida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda ularning g'alabalarini yoshlarimizga ibrat bo'lib, ularni Vatanga sadoqatni tarbiyalamoqda.

Tahlil

Sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida ko'plab kasblar yo'qolish xavfiga duch kelishi mumkin. Bu xalqaro tadqiqotchilarning fikri. Yo'qolib ketish xavfi yuqori kasblar ro'yxati bilan tanishar ekansiz, ba'zilarini ko'rib hayron qolasiz. Axir qanday qilib bu soha egalari ishini sun'iy intellekt bajara olishi mumkin?

Meni hayratlantirgan bunday kasblardan biri — psixolog. Tadqiqotchilar fikricha, kelajakda psixologlar vazifasini ham sun'iy intellekt bajarishi mumkin. Ya'ni sun'iy intellektga umumiy holatini tushuntirish, u esa bularning barchasini chuqur tahlil qilib, sizga kerakli maslahatlar beradi. Shu o'rinda kichik tajriba o'tkazish fikri tug'ildi. Bir xil psixologik muammo bilan ham psixologga, ham sun'iy intellektga murojaat qilib ko'rsak...

Ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'pchilikka tanish psixologlarni izladim. Ulardan biri bilan bog'lanib, qabuliga yoziqlomchi ekanimni ma'lum qildim. Konsultasiya uchun to'lovlarini to'lab, shundan keyin tajriba uchun o'yab topilgan psixologik "muammo"ni yozib yubordim. "Muammo" quyidagicha edi: "Umidsizlikka ko'p tushaman. Bu ba'zan alamzadaliikka aylanadi. Qanday ish boshlamay, ana shu umidsizlik tufayli uni oxirigacha yetkaza olmayman. Holatim yaxshilanish o'rimga tobora yomonlashib bormoqda. Mengdagi bu muammodan faqat o'zim emas, oila a'zolarim ham aziyat chekayapti. Nima maslahat berasiz?".

Psixologning javobi quyidagi mazmunda bo'ldi: "Qadrlil mijoz! Sizdagi bu holatni bartaraf etishning, albatta, imkoni bor. Biroq bu bir oz vaqt olishi mumkin. Eng avvalo, siz o'zingizni tinglashni o'rganishingiz lozim. Nima xohlaysiz, nimalarni xohlamaysiz, birinchi navbatda, shularni hisobga olish muhim.



Siz bu holatdan chiqish uchun maqsadlaringizni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib olishingiz lozim. Shunda ularning amalga oshirishi osonlashadi. Kichkina yutuqlar esa ruhiyatning tiklanishiga, o'zingizga ishonchingiz ortishiga sabab bo'ladi. Keyin oilangizni sevisini o'rganing, ular siz uchun eng qadrlil insonlar ekanini o'zingizga qayta-qayta uqitiring. Natija, albatta, bo'ladi.

Istasangiz, bu bo'yicha maxsus onlayn kursimiz ham bor. Yangi guruhga qabul davom etyapti. Qatnashish niyatida bo'lsangiz, xodimlarimiz siz bilan bog'lanadi. Savollaringiz bo'lsa, bemaoloz yozib yuborishingiz mumkin". Endi ayni shu "muammo"ga sun'iy intellektning javobini o'qiyamiz: "Siz his qilayotgan umidsizlik va alamzadaliikka qanchalar og'ir ekanini tushunib turibman. Bu his-tuyg'ular hayotni qiyinlashtiradi, lekin siz ular bilan kurashishga, yengishga qodirsiz. Har qanday muammoga yechim topish uchun birinchi qadam uni tan olish va qabul qilishdir. Shuni unutmaymiz. Umidsizlik aksar hollarda insonni harakatsizlikka olib keladi va bu salbiy ta'sir ko'rsatadi. Siz boshlagan ishlaringizni tugallay olmayotganingiz sababi ham shu — ishni tugallashga intilganingizda ruhiy holatingiz, ya'ni umidsizlik sizga to'siq bo'lib turadi. Bu holatning bir necha sababi bo'lishi mumkin, masalan, ortiqcha qayg'urish, ajratish kerak bo'lgan

energiyani aniqlay olmaslik yoki har bir ishni boshlaganda shubha bilan qarash va boshqalar. Shuning uchun ushbu holatni yaxshilashga yordam beradigan bir nechta asosiy qadami ko'rib chiqishimiz kerak. Birinchidan, hadiklardan, qiyinchiliklardan qochish emas, balki ularga yuzma-yuz qarash, jiddiy yondashish zarur. O'zingizga be'e'tibor bo'lmang, tavakkal fikrlardan qochmang. Bu vaqtda sizga atrofingizdagilar katta yordam beradi, shuning uchun oila a'zolaringiz bilan ochiq muolot qilib olishda ahamiyat qaratilgan. Ularning fikrlarini tinglab, birgalikda harakat qilish holatingizga jiboyi ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, har kuni nima bo'lishidan qat'i nazar, kichik-kichik qadamlar qo'yishdan tortinmang. Shubhasiz, bu sizga boshlagan ishlaringizni tugallashga yordam beradi. Aslida, har kunlik maqsadlarni belgilash va ularga erishish kichik qadamlar bilan qiyin ishlarni tugallash qobiliyatini shakllantiradi.

To'g'ri tushuning, har bir inson hayotida qiyin va murakkab davrlar bo'lishi tabiiy holat. O'zgarishga kech bo'lmagan, ularni qabul qilib, hamisha oldinga qadam tashlashga e'tibor bersangiz, oila a'zolaringiz bilan birgalikda yanada quvonchli, tinch hayotga qayta erishasiz. Agar bergan maslahatlarim foyda bermasa, sizga shifokor qabuliga borishni tavsiya qilaman. U bu ruhiy holatdan chiqib ketishga qo'shimcha yordam berishi mumkin. Yana yordam kerak bo'lsa, men hamisha tayyorman. Kuningiz yaxshi o'tsin".

Darvoqe, psixologning mijozlari ko'pligi bois, savollariimga 2 soatdan keyin javob qaytardi. Sun'iy intellekt esa buning uchun 1 daqiqa sarfladi. Eslatib o'tamiz, bu holatda biz ikkalasidan birini ustun qilib ko'rsatish fikridan yiroqimiz, xulosani o'quvchining o'ziga qoldiramiz. Sun'iy intellekt bugun butun boshli tadbirkorlik rejalarini ham tuzaypti. Keling, uni bu jihatdan ham sinab ko'ramiz. Eng birinchi, tajriba uchun to'qilgan moliyaviy ahvolimizni oydinlashtiramiz. Demak: "Biz uch kishi bozorda savdo do'konini ochib, tadbirkorlik sohasiga kirmoqchimiz. Asosan, oziq-ovqat mahsulotlari sotishni rejalashtiryapmiz. Umumiy sarmoyamiz — 90 million so'm, ya'ni har birimizning ulushimiz 30 million so'm. Savdo do'konining ijrasini — 5 million so'm. Kommunal xarajatlar o'rta 500 ming so'm. Kundalik xarajatlar ham 5 million so'mni tashkil etadi. Taxminimizga ko'ra, bir kunda o'rta 4 million so'mlik mahsulot sotishimiz mumkin. Shundan foydamiz — 20 foiz. Endi ayt-chi, biz qanday qilib foydani taqsimlashimiz mumkin?".

Sun'iy intellektning javobini o'qiyamiz: "Siz aytgan ma'lumotlarga asoslanib, biz foydani taqsimlashni oddiy tarzda amalga oshirib ko'rishimiz mumkin. **Kunlik foyda hisob-kitobi:** Savdo do'konining kunlik savdo hajmi o'rta 4 million so'm. Shundan foyda marjasi 20 foizligini hisobga olsak, sof daromad:

4000000 so'm x 0,20 = 800000 so'm. **Foydani taqsimlash:** Foydani taqsimlash uchun har biringizning ulushingizni hisobga olishimiz kerak. Har biringizga 30 million so'mdan bo'lgani uchun foyda teng ravishda taqsimlanadi. Demak, foydani 3 kishi o'rta 1200000 so'mda taqsimlasak, har biringizning foydangiz quyidagicha bo'ladi: 800000 so'm ÷ 3 = 266 666,67 so'm. Demak, uchalingiz ham kunlik foydadan 266666,67 so'mdan olasiz. Bu kelishuvingizga qarab o'zgarishi mumkin, lekin aniq javvalda shu tarzda hisoblasa bo'ladi. **Xarajatlar:** Ijara xarajatlari — 5 million so'm. Kommunal xarajatlar — 500 ming so'm. Kunlik umumiy xarajatlar ham — 5 million so'm. **Xarajatlarni hisoblash:** Ijara haqi: 5 million so'm. Bu summani bir oy uchun hisoblaymiz, ya'ni 5 million so'mni 30 kunga bo'lamiz: 5000000 so'm ÷ 30 = 166667 so'm (kuniga). Kommunal xarajatlari: 500 ming so'm (har oyda). Buni 30 kunga bo'lishimiz kerak: 500000 so'm ÷ 30 = 16667 so'm (kuniga). Boshqa xarajatlar: 5 million so'm. Buni ham 30 kunga bo'lamiz: 5000000 so'm ÷ 30 = 166667 so'm (kuniga). Shunday qilib, umumiy oylik xarajatlaringiz o'rta 4 million 500 ming so'm bo'lmoqda. Endi oylik foyda va xarajatlarni hisoblaymiz:

Oylik foyda: 24 million so'm. Oylik xarajatlari: 10 million 500 ming so'm. Sof daromad: 24000000 so'm - 10500000 so'm = 13500000 so'm. **Umumiy foyda taqsimoti:** Umumiy oylik foyda 13 million 500 ming so'm bo'lib, 3 odam o'rta 4,5 million so'm taqsimlanadi: 13500000 so'm ÷ 3 = 4500,000. Shu tariqa har biringiz oy davomida 4 million 500 ming so'mdan foyda olasiz. Biroq bu hisob-kitoblarga to'la ishonish to'g'ri emas. Tashqi ta'sirlar natijasida bu ko'proq ham, kamroq ham bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda eng to'g'ri yo'l savdoni optimizatsiya qilishdir. Bunda reklama bannerlari yasatib, ko'proq odamlarning e'tiborini jalb qilish, mahsulotlarni turini ko'paytirish, talabgir mahsulotlarni aniqlash va boshqa bir qancha yechimlar yordam berishi mumkin. Agar qo'shimcha savollaringiz bo'lsa, men tayyorman". Ayni shu masala bilan shu mutaxassislariga murojaat qilganimizda esa buning uchun alohida daromad strategiyasi tuzish lozimligini ma'lum qildi. Shubhasiz, buning ham belgilangan xizmat narxi bor ekan. Yana takrorlaymiz, biz bu kichik tajribalarimiz orqali qaysidir tomonni ustun ko'rsatish fikridan yiroqimiz. Shunchaki, bu orqali sun'iy intellektning rivojlanib borayotgan imkoniyatlaridan bir nechtasini ko'rsatishni maqsad qilganmiz. Sun'iy intellektning nihoyatda tez rivojlanayotgani barchamizni sergaklikka chorlashi kerak. Nima kasb tanlaymiz, nima ish bilan mashg'ulmiz, qilyotgan ishimizning vazifalari kelajakda sun'iy intellekt bilan o'zaro kesishadimi — shu jihatlarini chuqur tahlil qilishning ayni vaqti. Sababi dunyoning eng nufuzli tadqiqot markazlari sun'iy intellektning kelajagi haqida statistikamini allaqachon e'lon qila boshlagan. Masalan, Goldman Sachs hisobotiga ko'ra, sun'iy intellektning rivojlanishi sabab yaqin kelajakda dunyo bo'yicha 300 million kishi ishsiz qolishi mumkin. Davlatimiz tomonidan sun'iy intellekt rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Uning imkoniyatlarini o'z vaqtida to'g'ri baholay olganimiz quvonarli hodisa. Eng muhimi, oldimizga qo'yilgan vazifalarni aniq, samarali bajarishimiz, kundalik hayotimizni ham shunga moslashtirib borishimiz lozim.

Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

